

O‘ZEBKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA
MAMLAKATSHUNOSLIK” FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

2008-2020 YILLARDA XITOYDA IQTISODIY O‘SISHINING ASOSIY
OMILLARI

Bajardi: “5341000 Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyoti va Mamlakatshunoslik”
ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi
Jumayev Hikmatullo_____

Ilmiy rahbar:

i.f.n dots. Sadibekova B.D._____

Maslahatchi:

o’qituvchi. Nig’monov A.U._____

Toshkent 2014

HIMOYAGA RUXSAT BERILDI

“XMI va mamlakatshunoslik” Fakultet dekani i.f.n. Maxmudov E.A “ ____ ” _____2014y _____	“Xitoy va JSHO mintaqasi mamla- katlari iqtisodiyoti va mamlakat- shunosligi” kafedra mudirasi dots. Melibayeva G.A “ ____ ” _____2014y _____
---	---

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY JIHATLARI VA XITOYNI IQTISODIY O'SISH OMILLARI.....	7
1.1. Iqtisodiy o'sishning mohiyati va uning nazariy asoslari.....	7
1.2.Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.....	14
1.3. Xitoyni iqtisodiy o'sish omillari va uning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davridagi holati.	22
II BOB. XITOYNING ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING KELAJAK ISTIQBOLLARI.....	28
2.1. Xitoyning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi chora-tadbirlari.....	28
2.2.Mamlakatning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari va unga ta'sir etuvchi omillar.....	36
2.3. Xitoy Xalq Respublikasining zamonaviy iqtisodiy rivojlanishi va uning kelajak istiqbollari hamda uning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari.....	50
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga va jahon xo'jaligiga chuqurroq kirib borishga intilmoqda. Hozirgi kunda jahondagi iqtisodiy munosabatlarda globallashtirish jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidentining «tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmay xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim - O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»¹ degan so'zlarini yana bir bor esga olish muhimdir.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotida rivojlanib kelayotgan mamlakatlar orasida uch yirik mamlakat - Braziliya, Hindiston va Xitoy o'zlarining yalpi ichki mahsulotlari hajmi jihatidan dunyoning sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlari - yalpi ichki mahsulotlari hajmiga (Germaniya, Italiya, Kanada, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyalar) bir yarim asr oralig'ida tenglasha oldi. Shuni ta'kidlash lozimki, soha ekspertlarining bashoratlariga ko'ra, 2050-yilga borib jahon iqtisodiyotining 40 foizi - Xitoy, Braziliya va Hindiston mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.²

Jahon xo'jaligini rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega mamlakatlardan biri – bu Xitoy hisoblanadi. Xitoy XX asrning 70-yillar oxiriga kelib, o'zining iqtisodiy yutuqlari bilan jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatning bu sohada erishgan iqtisodiy muvaffaqiyatlari oxirgi qirq yildan ortiqroq vaqt mobaynida, shubhasiz, uning olib borayotgan iqtisodiy islohatlari natijasidir. Mana shu muvaffaqiyatlar natijasi o'laroq, Xitoy bugungi kunda, jahon xo'jaligining nafaqat, ajralmas bir bo'lagi sifatida faoliyat

¹Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009, 11-b..

²WorldBank 2012.URL: <http://data.worldbank.org/indicator>

ko'rsatmoqda, balki, hozirgi kunda dunyoning ikkinchi iqtisodiyotiga aylangan Osiyodagi yetakchi yirik mamlakat hamdir.

Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda o'zining "iqtisodiy mo'jizasi" bilan dunyo hamjamiyatini hayratga solib kelmoqda, uning sabablarini bilish va o'rganish har bir dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun, benihoya dolzarb ahamiyat kasb etadi va ular uchun tajriba maydoni vazifasini bajaradi. Aynan shuning uchun ham, bu ishning dolzarbligi shubhasizdir. Shu bilan bir qatorda, aytish joizki, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek, - "Bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta'minlash, tenglar ichida teng bo'lib, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashdan iboratdir. Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hissamizni qo'shsak, men ishonaman – oldimizda turgan vazifalar qanday ulkan va murakkab bo'lmasin, biz o'z ko'zlagan ezgu marralarimizga albatta erishamiz"³.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi "2008-2020 yillarda Xitoyda iqtisodiy o'sishining asosiy omillari"ni jiddiy tahlillar yordamida o'rganib chiqish, mamlakatdagi industriallashtirish jarayoniga xos xususiyatlarni ochib berish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish muammolari va istiqbollarini kompleks tahlil etishdan iborat.

Bu maqsadga erishish yo'lida ilmiy izlanish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Iqtisodiy o'sishning mohiyati va uning nazariy asoslarini o'rganib chiqish;
- Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini izchillik bilan o'rganish va tahlil etish;

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan 18.01.2014 yil.

- Xitoyning iqtisodiy o'sish omillarini va ularning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davridagi holatini chuqur o'rganish;
- Xitoyning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi ishlab chiqilgan chora-tadbirlarini tahlillar yordamida o'rganib chiqish va niqlash;
- Xitoy Xalq Respublikasini zamonaviy iqtisodiy o'sish xususiyatlarini tahlil etish va uning kelajak istiqbollarini aniqlash;
- Xitoy tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini izlab topish va kerakli taklif hamda xulosalar ishlab chiqish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy o'sishning nazariy jihatlarini, uning turlari va unga ta'sir etuvchi omillari iqtisodiy nazariyani klassik maktabi asoschilari va jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga hamda bozor iqtisodiyotiga o'zlarining hissalarini turli davrlarda qo'shib kelgan iqtisodchi-olimlardan A.Smit⁴, Maykl Porter⁵, Xirotaka Takeuti, Mariko Sakakibara asarlarida chuqur o'rganilib chiqilgan⁶. Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlari va uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi masalalari bilan Din Judjun, M.M.Kovalev, V.V.Novik⁷, Potapov M.⁸, P.Mozais⁹, V.Gelbras¹⁰, V. Mixeev¹¹lar hamda O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyevlar¹², B.D.Sadibekovalar¹³ tomonidan o'rganilgan.

⁴ A.Smit "Millat boyligi tabiati va kelib chiqish sabablari", 1777y

⁵ Maykl Porter, Xirotaka Takeuti, Mariko Sakakibara. Японская экономическая модель, может ли Япония конкурировать? Москва, 2005 г..С.261

⁷ Judjun Din, Ковалев М. М., Новик В. В. Феномен экономического развития Китая; научное издание. Минск, Издательский центр, БГУ, 2008. – С.446

⁸ Потапов М. Вступление КНР и ВТО: условия присоединения для китайской экономики//Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии.-Международные отношения, 2004

⁹ Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: венефициар, жертва или виновник? //Вопросы экономики, №9, 2010.С. 93-114

¹⁰ Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «реформ и открытости» и Китае, // Мировая экономика и международные экономические отношения, №6, 2009.с. 73-83.

¹¹ В.Михеев, Дальше-без заветов-3 («Китайская мечта» экономика, амбиции, лидерство) Мировая экономика и международные экономические отношения, №2, 2014. С. 12-22;

¹² Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma.-T.: Moliya, 2011. 718 B.

¹³ B.D.Sadibekova. Xitoy iqtisodiyoti, o'qyuv qo'llanma, "O'zdamatbuotLITI", T.,2011, 3-qism. 37 B.

Tadqiqotning ob'yekti - Xitoy iqtisodiyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti - Xitoyda 2008-2020 yillarda iqtisodiy o'sishining asosiy omillari va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini tam'inlab berishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar hamda iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik va information asoslari bo'lib mazkur mavzuga bag'ishlangan XKP MQ va Xitoy hamda O'z.R si Hukumatlari Qonunlari, qarorlari farmoishlari hamda O'zb.Respublikasi Prezidentining asarlari xizmat qildi. Undan tashqari, xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik to'plamlari, analitik va information nashrlar hamda turli internet resurslaridan ham qo'llanildi.

Ilmiy ishning uslubiy asoslari - ishda tizimiy va qiyosiy tahlillar, induksiya va deduksiya hamda iqtisodiy statistika uslublaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ishda Iqtisodiy o'sish bo'yicha yozilgan, xususan, Xitoy iqtisodiy o'sish sur'atlariga bag'ishlangan turli monografiya, risolalar, ilmiy maqolalar chuqur o'rganilib chiqildi;

- Xitoy iqtisodiy o'sish omillari davrlar bo'yicha tahlil qilib chiqildi;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida Xitoy iqtisodiy o'sish omillarining yo'nalashlar vektori tahlil qilib chiqildi;

- Xitoyni hozirgi davrdagi iqtisodiy o'sish omillarining yo'nalishlari va kelajak istiqbollari tahlillar yordamida aniqlandi;

- Xitoy tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati.—ilmiy ishdan Oliy ta'lim muassasalari, xususan, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar hamda mazkur yo'nalishga qiziquvchi magistlar uchun ma'ruza matni sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi - kirish, ikki bob, 6 ta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY JIHATLARI VA XITOYDA IQTISODIY O'SISH OMILLARI

1.1. Iqtisodiy o'sish mohiyati va uning nazariy asoslari

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshirib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish murakkab va qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan **iqtisodiy o'sish** ko'proq tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish barcha mamlakatlar oldida turgan asosiy maqsad ekan, doimiy, ya'ni barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun nima qilish kerak? Iqtisodiy o'sish omillari nimalardan iborat? Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Shu kabi savollar juda ko'p vaqtlardan beri muhokamali mavzuga aylanib qoldi. Bu savollarga javob topishda bizningcha, eng avvalo iqtisodiy o'sish omillarini chuqurroq bilishga undaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida R.Solou, yangi mum'toz iqtisodiyot maktabi vakli iqtisodiy o'sishning yangi nazariyasini ishlab chiqishdi. Bu nazariyada iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida kapital jamg'arilishi keltiriladi. Keyinchalik R.Lukas, S.Rebelo va R.Barro kabi iqtisodichi olimlar kapital tushunchasini kengaytirishib, uni tarkibiga inson kapitali tushunchasini kiritishdi, hamda qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni o'rganishdi. XX asrning 80-yillariga kelib P.Romer "endogen o'sish" modelini ishlab chiqdi. Bu modelda texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishdagi o'rniga e'tibor berilgan bo'lib u uzoq muddatli iqtisodiy o'sish mexanizmini shakllantirdi. Shuningdek bu modelda iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat iqtisodiy siyosati katta ahamiyat kasb etishi keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan modellarning hammasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib ularning har biri turli shart-sharoitda turli xil natija berishi mumkin. Modellarning kamchiliklari va ularni empirik tadqiqot natijalari bilan muvofiqlashtirilmaganligi natijasida faqatgina kapital jamg'arilishi va texnologik

taraqiyot iqtisodiy o'sish omili sifatida ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tan olingan. Iqtisodiy o'sishning boshqa omillari xususida iqtisodchi olimlarda qarama-qarshi fikrlar va yondashuvlar mavjud.

Iqtisodiy o'sish omillarini aniqlash maqsadida ko'plab iqtisodchi olimlar Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini 1960-1990 yillardagi iqtisodiy rivojlanish tarixini tahlil qilishadi. Bunda ma'lum davr oralig'ida bir xil mamlakatlar o'rganilishiga qaramasdan olingan xulosalar va aniqlangan omillar turli xildir. Fikrimizcha ushbu omillarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Bular:

- kapital jamg'arilishning yuqori sur'ati, ishchi kuchi miqdorini o'sishi va inson kapitali sifatini yaxshilanishi;
- ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshiruvchi xorijiy texnologiyani keng qo'llanilishi;
- infratuzilmadan samarali foydalanish, iqtisodiyot ochiqqligining yuqori darajasi.

Ma'lumotlarimiz ko'rsatishicha iqtisodiy o'sish omillarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Bu holat Rossiyalik iqtisodchi G.Tarakanov ishlarida o'rganilgan¹⁴. Bunda yalpi ichki jamg'arma, davlat xarajatlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YAIMga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda olingan asosiy natijalar quyidagicha:

1. Yalpi ichki jamg'arma aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo ushbu ko'rsatkichning iqtisodiy o'sishga ta'siri rivojlangan mamlakatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan kuchliroq. Chunki rivojlangan mamlakatlar sanoatining aksariyat qismini kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlar tashkil etadi. Ya'ni qanchalik mamlakatning YAIM kapital sig'imkorligi past bo'lgan tarmoqlarga bog'liq bo'lsa shunchalik

¹⁴Тараканов Г. Детерминанты экономического роста и уровень развития страны // МЭиМО 2007, №9, С.51-58

yalpi ichki jamg'armaning aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YAIMning o'sish sur'atlariga ta'siri sust bo'ladi.

2. Davlat xarajatlari miqdori iqtisodiy o'sishga doimo salbiy ta'sir ko'rsatib, mamlakat rivojlanib borishi bilan bu ta'sir kuchayib boradi. Shu bilan bir qatorda qoloq mamlakatlarda uzoq muddatda davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishga deyarli sal'biy ta'sir ko'rsatmaydi.

3. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanib borish jarayoniga uning ta'siri kuchayib boradi. Chunki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi o'z navbatida, milliy xo'jalikda institutsional va investitsion muhitini rivojlanishiga olib keladi.

4. Tashqi savdo iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning ta'sir etish darajasi ustun darajada jahon bozoridagi o'zgarishlarga bog'liq.

Shu sababli mamlakat iqtisodiy rivojlanish modelini, shu jumladan davlatning iqtisodiy siyosatini ustivor yo'nalishlarini ishlab chiqishda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari xisobga olinishi kerak.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish bu iqtisodiyotni uzoq vaqt davomida nisbatan statistik barqaror holatda bo'lishi va shu orqali YAIMning yillik o'sish sur'atini 5-7%da kam bo'lmasiligini ta'minlashidir. Bu degani barqaror iqtisodiy o'sishga erishgan mamlakat 10 yilda o'z YAIMni ikki baravarga oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- jamg'arishning yuqori darajasi;
- investitsiyalar samaradorligi;
- talimni rivojlantirishga katta xarajatlar qilish;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv;
- ratsional makroiqtisodiy dasturlarni amalga oshirish.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish makroiqtisodiyotning asosiy masalalari

hisoblanadi. Ushbu masalalar orasida markaziy o'rinni iqtisodiy o'sish egallaydi. Bir tarafdin iqtisodiy o'sish qo'shimcha ish joylarining shakllanishi va ishsizlik darajasining pasayishiga olib kelsa, boshqa tarafdin ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi inflyatsiyani cheklab turishga shart-sharoit yaratadi. Shu sababli global moliyaviy - iqtisodiy inqiroz sharoitida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uzoq vaqt davomida maqroiqtisodiy muvozanatni saqlagan holda iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan o'sib borishidir. Bunday o'sish mamlakat yalpi ichki mahsulotini 10 yil ichida ikki barobarga oshishini ta'minlaydi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Global iqtisodiy inqirozlar sharoitida bu omillar orasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash o'ziga xos o'rin egallaydi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davlatlarda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshlikni oshirish masalasining dolzarblashuviga va shu orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalash ahamiyatining o'sishiga olib keldi.

Yuqorida tahlil qilingan modellarni umumlashtirgan holda iqtisodiy o'sishning ikki asosiy omilini ajratib ko'rsatish mumkin: jamg'arish va texnik taraqqiyot. Jahon texnik taraqqiyot natijalaridan foydalanish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash kerak.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash uchun dastlab mamlakat iqtisodiyotining holatini baholash va aniq maqsadlarni belgilash lozim. Misol uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad aholi daromadini rivojlangan mamlakatlarga nisbatan farqini qisqartirishi bo'lgan.

Ko'plab manbalarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyotni modernizatsiyalash tajribasi andoza sifatida keltiriladi. Bu mamlakatlarning modernizatsiya modeli "quvib yetadigan" iqtisodiy rivojlanishning klassik namunasi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarining rivojlanishida bu mamlakatlarga xos quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy modeli uchun davlat va biznes hamkorligi xosdir. Davlat kreditlar va tashqi iqtisodiy imtiyozlar tizimidan foydalanib iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi, bu bosqichda ustuvor tarmoqlarni qo‘llab-quvvatladi.

Ikkinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari davlatning iqtisodiyotdagi rolini bosqichma-bosqich kamaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish orqali iqtisodiy rivojlanish siyosatini o‘zgartirib borishdi.

Uchinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy rivojlanish modeli eksportga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. 2010 yilda eksportning YAIMdagi ulushi Indoneziyada - 24,6%, Filippinda - 34,4%, Janubiy Koreyada - 54,0%, Tailandda - 71,9%, Malayziyada - 97,3%, Singapurda - 208,3% ni tashkil etdi¹⁵.

To‘rtinchidan, jamg‘arish me‘yorining yuqoriligi. Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarida 1991 yilda jamg‘arish me‘yori 30% dan past bo‘lmagan, Singapurda esa ushbu ko‘rsatkich 47% ga, 2005 yilda esa 53,2% ga teng bo‘ldi. 2010 yilda bu ko‘rsatkich Osiyoning yangi industrial mamlakatlari bo‘yicha o‘rtacha 33,4% ni tashkil etdi¹⁶.

Beshinchidan, tashqi omillarning roli. Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalashda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, texnologiyalarni import qilish, xorijiy mutaxassislardan foydalanish, xalqaro kreditlar va eksport muhim ahamiyat kasb etdi. Misol uchun, 1980 yillarda Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan kompyuterlar soni 20 martaga oshdi, ularning 95,0% i xorijiy litsenziyalar asosida ishlab chiqarilgan bo‘lib, mahalliy ehtiyoj qismlar qiymati 15,0% dan oshmagan va ularda o‘rnatilgan dasturlar xorijdan import qilingan¹⁷.

¹⁵Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011. P. 85, 96, 109, 136,153, 169.

¹⁶Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. с. 222.

¹⁷Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. /Под редакцией В.Л.Иноземцева. Вып. 1. Стратегические проблемы модернизации. - М.: Центр исследований постиндустриального общества, 2009. с. 29.

Demak, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak. Agar bu xususiyatlar inobatga olinmasa modernizatsiya jarayoni samarasiz kechishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash texnik modernizatsiyani o'z ichiga oladi. Shu sababli modernizatsiya bilan bandlik o'rtasida bog'liqlik mavjud. Nobel mukofatiga sazovor bo'lgan Amerikalik iqtisodchi olim Djon Xiks nazariyasiga binoan iqtisodiy modernizatsiya natijasida iqtisodiyotga joriy qilinuvchi yangi texnika va texnologiyalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Kapital tejovchi texnika va texnologiyalar - ishlab chiqarish jarayoniga kapital omili sarfini nisbatan ko'proq miqdorga tejalishini ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinishidir;

2. Mehnat tejovchi texnika va texnologiyalar - ishlab chiqarish jarayonida mehnat omili sarfini nisbatan ko'proq miqdorga tejalishini ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalarning joriy qilinishidir;

3. Neytlar texnika va texnologiyalar - ishlab chiqarish jarayonida kapital va mehnat omili sarfini bir xil miqdorga tejalishini ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalarning joriy qilinishidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda yuqori bandlikni ta'minlash maqsadidan kelib chiqadigan bo'lsak rivojlanayotgan mamlakatlari dastavval mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlari rivojlantirishi kerak ekan. Agar jahon tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham o'zlarining modernizatsiya va tarkibiy siyosatida dastlabki yillarda mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishgan. Bu mamlakatlar 1950-1960 yillarda to'qimachilik, metallurgiya, kimyo va shisha sanoati kabi yuqori mehnat sig'imkorligiga ega tarmoqlarni rivojlantirishgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash inson kapitalining ahamiyatini oshishiga olib keladi. Chunki ishlab chiqarishga joriy qilingan yangi texnika va texnologiya ishchilarning yuqori malakali bo'lishini talab qiladi. Shu sababli modernizatsiya past malakali ishchilar orasida ishsizlikning o'sishiga va yuqori malakali ishchilar

orasida ishsizlikning pasayishiga olib keladi. Bu holatni innovatsion iqtisodiyotga o'tgan, sanoat jixatidan taraqqiy etgan mamlakatlarda kuzatish mumkin. Misol uchun AQSHda o'rta maktabni bitirmaganlar orasida ishsizlik 10,6 %ni, kolleжда taqsil olmaganlar orasida 7,1 %ni, oliy ma'lumotlilar orasida 3,3 %ni tashkil qiladi¹⁸.

Respublikamizda iqtisodiyotning modernizatsiyalashga va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning maqsadi - mamlakat iqtisodiyotini yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish, mamlakat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholining o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish hisoblanadi. Bu borada "Iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi¹⁹".

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashga yo'naltirilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sanoat tarmoqlarining YAIMdagi ulushi o'sib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2000 yilda 14,2 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 2012 yilda 24,1 %ga yetdi. Samarali amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosat va modernizatsiya O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlanmoqda. Prezidentimiz takidlaganidek "2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot xajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi²⁰".

¹⁸IvanovN. "Mirovoy krizisirinoktruda"// MEiMEO №11, 2011, s.8

¹⁹Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston». 2010. 43-b.

²⁰2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan VazirlarMahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalqso'zi, №14, 2012 yil 20 yanvar, 1-bet

Yuqorida amalga oshirilgan tahlilni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni olish mumkin:

- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Iqtisodiyotning barqaror o'sishi ishsizlikning qisqarishiga va inflyatsiyani cheklab turish imkoniyatining kengayishiga olib keladi;

- iqtisodiyotning barqaror o'sishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash muhim o'rin egalaydi. Ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida modernizatsiya barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi;

- iqtisodiyotni samarali modernizatsiyalash uchun dastavval iqtisodiyotning holati aniq baholanishi va modernizatsiya strategiyasi ishlab chiqilishi kerak;

- iqtisodiyotni modernizatsiyalashda davlat markaziy o'rinni egalashi va u tadbirkorlik sektorining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak;

- rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida modernizatsiya barqaror iqtisodiy o'sishning omiliga aylanishi uchun bu mamlakatlarda dastavval mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan sanoat tamoqlarini rivojlantirish kerak.

1.2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Xitoy mamlakatining iqtisodiy taraqqiyoti XX-asrning 70-yillaridan so'ngi davda quyidagi omillar asosida rivojlandi:

- 1) Mamlakatning iqtisodiy-geografik jihatidan joylashuvining qulayligi;
- 2) Mamlakatda yirik qazilma boyliklarning zahirasining va ko'plab tabiiy resurslarning mavjudligi;
- 3) Qishloq xo'jaligining yuksak darajada rivojlanishi;
- 4) Xitoy mahsulotlarini eksport qilinishida demping siyosatining qo'llanilinishi;
- 5) 90-yillardan boshlab, mamlakat tashqi savdosida eksportning ortib borishi;

6) Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida "xitoy modeli"ning bir muncha o'zgarib, "Xitoyni sotsialistik spetsifikali bozor iqtisodiyoti" ga aylanishning ahamiyati;

7) 80-yillarda Xitoy xukumatining "kuchli" iqtisodiy islohotlarni olib borishi;

8) YaIMning yildan-yilga o'sib borishi. 1978 yildan 1997 yilgacha YaIM o'rtacha yiliga 9,6%dan o'sib bordi. Xitoy iqtisodiyoti tarixida YaIMning o'sish rekordi 1992 yilda yuz berib, 14,2%ni tashkil qilganligi (1-jadval);

9) Mamlakatda ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining ortiqchaligi;

10) Xitoyning tashqi savdo-sotig'ida Gongkong dengiz portining ustuvor darajadagi ahamiyatining ortib borishi;

11) Xitoyning "ochiq eshiklar siyosati"ni amalga oshirishi natijasida.

1.2.1- jadval

YaIMning 1978-1997 yy.dagi tarkibi²¹

Ko'rsatkichlar	YaIMdagi ulushi,%da	Aholi bandligi,%da
Qishloq xo'jaligi	19	50
Sanoat	49	24
Xizmat ko'rsatish	32	26

1984 yilda Xitoy xukumati mamlakatning 14 shahriga tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish huquqini berdi. Ushbu dengiz shahar portlari tashqi savdo-sotig'i uchun "ochiq" deb e'lon qilindi. Shu bilan birga 4 ta "erkin iqtisodiy hudud". Shenchjen, Chjuxay, Syamin va Shantou tashkil qilindi. Ushbu "erkin iqtisodiy hudud"larning eng yirigi Shenchjen shahridir. Ushbu shahar Gongkongga yaqin bo'lgan hududda joylashgan.

12) Ishlab-chiqarish resurslarining doimiy o'sishi.

13) Xorijiy sarmoyalar va texnologiyalarning jalb qilinishi;

²¹ Manab: Xitoy iqtisodiyoti Sadibekova B.D. II-qism//8.1;12 bet.

1978 yilda Butunxitoy xalq vakillari yig'ining beshinchi sessiyasida rivojlanishning "To'rt Modernizatsiya" Dasturini amalga tatbiq etishga o'tishi 10 yillik rejasining qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu "To'rt modernizatsiya" dasturi to'rtta yo'nalishda:

- qishloq xo'jaligi;
- sanoat;
- harbiy mudofaa;
- fan va texnika sohasini modernizatsiya qilishdan iborat edi.

Ushbu 10 yillik dasturda G'arbdan zavod fabrikalar uchun tayyor asbob-uskunalar va yangi texnologiyalarning katta miqdorda import qilinishiga urg'u berildi. 1978 yilning oxiriga borib, Xitoy xorijiy investorlar bilan 7 mlrd. AQSH doll. miqdorida qator shartnomalarni imzoladi.

1982 yilgacha Xitoyga jami 430 mln. AQSH doll. miqdorida xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, 2002 yil holatiga 44 mlrd. 241 mln. AQSH doll. miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi¹.

14) Turizmning rivojlanishi.

Hozirda Xitoyga 1 yilda o'rtacha 3-4 mln. sayyox tashrif buyuradi. Agarda Gongkong va Makaoni qo'shib hisoblaganda yil mobaynida 11 mln. dan ortiq sayyox tashrif buyuradi.

15) Xitoy iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati.

Mamlakatning rivojlanishida "xitoy model"ining ahamiyati. 1984 yilning oktyabrdagi XKP Markaziy Komitetining navbatdagi plenumida Xitoy Hukumati "Xo'jalik tizimini islohot qilish to'g'risida" qaror qabul qildi. Ushbu qabul qilingan tarixiy qarorda mamlakatda "Xitoy"ning xususiyatlariga muvofiq sotsializm qurish" vazifasi aniq-ravshan belgilab olindi va iqtisodiy davlat dasturi ishlab chiqildi.

“Xitoy modeli”da quyidagi xususiyatlarni ko`rishimiz mumkin:

– bozor islohotlarini boshlashdan avval iste'mol bozorida mahsulot narx-navolar dinamikasini tiklash, ya'ni bir xil toifaga va sifatga ega bo'lgan mahsulotlarning narxlarini tenglashtirish;

- bozor iqtisodini yuzaga keltirish va shakllantirish;

– bozorni yanada shakllantirishda xususiy tadbirkorlikni va yordamchi hunarmandchilikni rivojlantirish;

– inflyatsiyaning oldini olishda mamlakatda “qat'iy tartibda” rejim olib borish, milliy valyutaning qadrini oshirish;

– davlat korxonalarini xususiylashtirish, ya'ni sanoat korxonalarini “mustaqil xo`jalik tashkilotlariga” aylantirish;

– bir vaqtning o`zida davlat va xususiy sektorlarni rivojlantirish;

– mamlakatga xorijiy investitsiyalarni kiritishda “ochiq eshiklar” siyosatini olib borish va xorij kapitalini jalb qilish;

– mamlakatning qishloq joylarida dehqonlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarilishida davlat tomonidan moddiy va iqtisodiy yordam berish va ularning ortiqcha mahsulotlarni bozorlarda sotish imkoniyatlarini yaratib berish;

– dehqonlardan olib qo`yilgan tomorqa erlarining qaytarib berilishi, hamda qishloq joylarda “oilaviy pudrat” usulida ishlashga o`tilishi iqtisodiy islohotning asosiy maqsadlari bo`ldi.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlarning o`ziga xos jihati o`zgarishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishidir. Bunda mamlakatning demografik, iqtisodiy rivojlanish, daromadlar, xo`jalik yuritishdagi keskin hududiy tafovutlar inobatga olindi. Mamlakat “katta sakrashlar”dan charchadi, jadal sur'atlardagi iqtisodiy o`zgarishlar esa xalq noroziligiga sabab bo`lishi mumkin edi.

1978 yilda boshlangan bozor islohotlari kutilganidan ham ortiq natijalar berdi va iqtisodiy tizimning o`zgarishiga olib keldi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida uch bosqichli uzoq muddatli reja belgilab olindi:

➤ qishloq xo`jaligida islohotlar o`tkazish va tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosatini joriy etish (1970 yillarning oxiridan 1984 yilgacha);

- sanoatda davlat sektorini isloh qilish (1984-1988 yillar);
- Xitoyning GATT/JST tizimiga kirishi (1992 yildan keyin) bilan bog'liq iqtisodiy islohotlar kompleksi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar strategiyasining muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- ✓ moddiy resurslarni direktiv rejalashtirish va markazlashgan taqsimot ta'sirini kamaytirish orqali narxlarni sekin-asta erkinlashtirish;
- ✓ davlat va korxonalar o'rtasida mulkka egalik qilish va xo'jalik yuritish huquqini bir-biridan ajratish, davlat sektorining ulushini saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish;
- ✓ hududiy va mahalliy ma'muriyat moliyaviy bazasining xo'jalik huquqlarini kengaytirish.
- ✓ qirg'oqbo'yi viloyatlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash - xitoy diasporasi yashaydigan Gonkong, Tayvan kabi mamlakatlardan kapital jalb qilish;
- ✓ yuqori jamg'arish normasi hisobiga iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish (1980 yillarda 30% dan ziyod, 1990 yillardan va hozirgacha 40% dan yuqori);
- ✓ moliya sohasida davlat nazoratini saqlab qolish.

Mamlakatda eksport hududlarini tashkil etish 1979 yildan boshlangan bo'lib, dunyo mamlakatlari bilan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, sanoatning yangi tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan. Iqtisodiy ochiqlik dengiz sohili, mamlaktning ichki va chegaraga tutash hududlari, Yanszi daryosi havzasi orqali amalga oshirildi.

Xitoy erkin iqtisodiy hududlarini tashkil etishda katta hajmdagi kapital qo'yilmalar talab etilgan va bu qo'yilmalar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. 1995 yildayoq ushbu hududlarga asosiy kapitalga sarflangan kapital qo'yilmalarning 56,3% i yo'naltirilgan. Agar, Xitoyda investitsiyalar YAIMga nisbatan, yuqori sur'atlarda o'sganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, u holda eksportga yo'naltirilgan strategiyaning naqadar maqsadli amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

XX-asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab eksport ishlab chiqarish hududlariga yo'naltirilgan davlat va xususiy investitsiyalar ulushi jami investitsiyalar hajmining yarmidan oshib ketgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarning 70% dan ortiq qismi bu hududlarga yo'naltirilgan. 2007 yilga kelib eksport hududlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 59,5% ni, bu hududlardagi korxonalarning mamlakatdagi jami korxonalar sonidagi ulushi esa sanoatda 62,5% ni tashkil etgan²².

Islohotlar davrida ko'p ukladli bozor xo'jaligiga asos solindi. Mamlakat JSTga a'zo bo'lganidan so'ng xususiy sektor uchun ilgari yopiq hisoblangan iqtisodiyotning elektroenergetika, kommunal xizmat, neft sohasi, temir yo'l, fuqaro aviatsiyasi kabi sohalarida xususiy kompaniyalar faoliyati uchun imkoniyatlar birmuncha kengaytirildi.

Xitoyda davlat korxonalarining ulushi 1997 yilda 262 mingtani tashkil etgan bo'lsa, ularning soni 2008 yilda 110 mingtagacha qisqargan va mamlakat YAIMning 20% dan kamroq qismi bu sektorda yaratildi. Shunga qaramasdan asosiy iqtisodiy resurslar - kredit va yer davlat ixtiyorida qolgan. Davlat ixtiyoridagi yirik iqtisodiy nochor korxonalar subsidiyalar, imtiyozli kreditlar yordamida qo'llab-quvvatlanadi va 2009 yilda ularning soni 183 tani tashkil etgan²³.

Xitoy ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarining (ITTKI) zamonaviy bazasini shakllantirish siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlar ichida kengaytirilgan ilmiy tadqiqot bazasiga ega bo'lgan birdan-bir mamlakat hisoblanadi. ITTKIga xarajatlar 1990 yillarning o'rtalarida YAIMga nisbatan 0,57% ga teng bo'lgani holda, bu ko'rsatkich 2006 yilda 1,3% ga teng bo'lgan. 2020 yilga kelib bu ko'rsatkichni

²²В.Гельбрас. Тридцатилетие эпохи "реформ и открытости" в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. С. 78

²³Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник? //Вопросы экономики, №9, 2010. с. 96

2,5% gacha oshirish va o'rtacha yiliga 370 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan²⁴.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining asosiy omili – bu iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotga investitsiyalarni joylashtirishda yetakchilikni saqlab qolmoqda va investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Masalan, 2009 yilning birinchi yarmida Xitoyda investitsiyalar, iste'mol va eksport iqtisodiy o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda YAIM investitsiyalar ta'sirida 6,2% ga va iste'mol ta'sirida esa 3,8% ga qo'shimcha o'sgani holda, eksportning qisqarishi tufayli 2,9% ga pasayganligini kuzatish mumkin²⁵.

Xitoy iqtisodiy islohotlarining jiddiy yutuqlariga qaramay iqtisodiy o'zgarishlar eski muammolarni keltirib chiqardi:

- aholining o'ta zichligi va ishchi kuchining ortiqchaligi - qishloq joylarda aholining 53% idan ziyodi yashaydi, qishloq xo'jaligida esa aholining 49% i band;
- atrof-muhitning buzilishi, yer fondining kamayib borishi, suv resurslarining ifloslanishi (daryolarning 80% i zararlangan) - rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ekologik zarar mamlakat YAIMning 10% ga teng²⁶;
- hududlar bo'yicha iqtisodiy o'sish darajasining notekis rivojlanishi. Xitoyda aslida bir nechta hududiy iqtisodiyot mavjud. Xitoy hududini shartli ravishda uch iqtisodiy hududga bo'lish mumkin:

1) Sharqiy dengiz bo'yi mintaqasi (Pekin, Tyantszin, Shanxay, Guandun, Xaynan);

2) Markaziy;

3) G'arbiy.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hudud mamlakat sharqida joylashgan dengiz bo'yi hududi hisoblanadi. Bu hudud Xitoy umumiy maydonining 11% ini,

²⁴Яков Б. Инновационные перспективы Китая.//Отечественные записки, №3 (42), 2008.; Кокшаров А. Внутреннее развитие через глобальную экспансию. //Эксперт, №46 (540). 11.12.2006

²⁵ Ни Сюлинь. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32

²⁶РаковскийС.Н.Китайвсовременноммире.//География№18,2007.

<http://geo.1september.ru/article.php?IDк200701906>

jami aholining qariyb 40% i mana shu hudud aholisini tashkil qiladi. Bu hududlarda davlat korxonalari ulushi va sanoatning xomashyo tarmoqlari korxonalari nisbatan ancha kam joylashgan (Guandun, Szyansu provinsiyalari). Rivojlanish darajasi va sur'ati bo'yicha Markaziy rayon ikkinchi o'rinda turadi. G'arbiy hududlar esa umumiy maydonning 18% ini va jami aholining 20% ini tashkil qiladi.

Shular qatorida Xitoy iqtisodiyotida bir qator muammolar hammavjuddir:

✓ Daromadlarda tabaqalashuv darajasining o'sishi. Xitoyda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarga egaligi bilan bir qatorda uning ijtimoiy tabaqalashuv darajasi ham keskinlashib bormoqda. Bir tomondan, qishloq va shahar aholisi o'rtasida, ikkinchi tomondan esa, mamlakat dengiz bo'yi provinsiyalari va kambag'al ichki hududlari o'rtasida farq yiriklashib bormoqda. Misol uchun Xitoyda 2008-2010 yillarda Djini indeksi o'rtacha 0,42 ga teng bo'ldi;

✓ Mamlakatda 10% yuqori daromad oluvchilarning miqdoriga umumiy daromadlarning 45% i to'g'ri keladi, 10% kambag'al yashovchilar esa, faqat 1,4% ni tashkil qiladi. Hozirgacha Xitoyda mamlakat aholisining aksariyat qismini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy kafolatlarning mukammal tizimi hali ham ishlab chiqilmagan. Xususan, 1993 yilda shaharlarda yashovchilarning 71% tibbiyot sug'urtasiga ega bo'lgani holda bu ko'rsatkich 2003 yilda 43% ga, qishloq aholisida esa atigi 3% ga teng bo'ldi;

✓ Shahar va qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash miqyoslari tafovutini hisobga olgan holda, qo'shimcha soliqlarni olib tashlagandan keyingi daromadlar o'rtasidagi tafovut ehtimoli 5:1-6:1 ga yetishi mumkin, bu esa dunyo bo'yicha ijtimoiy tabaqalashuvning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Mamlakatning sharqiy, markaziy va g'arbiy provinsiyalari o'rtasidagi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichining hududiy ajralishida esa 1980 yildagi 1,53 dan 1,89 marta, 2002 yilda 2,03 dan 2,57 martagacha oshdi;

✓ Kambag'allik miqyosi haligacha ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatda kambag'allik darajasini pasaytirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga

oshirilshi natijasida absolyut qashshoqlik darajasida yashovchilar 1978 yilda 250 mln.kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2006 yilda 21,5 mln. kishigacha qisqardi. Shunga qaramasdan Xitoyda kunlik xarajati 1,25 dollarga teng bo'lganlar ulushi 15,9% ni tashkil etadi;

✓ Resurslarning samarasiz ishlatilishi. Xitoyda bir dona mahsulot ishlab chiqarishga rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 30% ko'p energiya sarfalanadi. Sanoatda mehnat unumdorligi AQSHga nisbatan 5% ni tashkil etadi.

Shunday qilib, aytish lozimki. mana shu nuammolarni Xitoy hukumati asta-sekin hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqib, ularni amalgaoshirmoqda.

1.3. Xitoyda iqtisodiy o'sish omillari va uning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davridagi holati

Zamonaviy Xitoy davlati rejalashtirish asosida rivojlanib, doimo bozor iqtisodiyotida modernizatsiya ishlarini olib borayotgan davlatlardan biridir. Tan olish kerakki, mamlakat iqtisodiyoti berayotgan ko'rsatkichlari va doimo ijobiy tendensiyalar Xitoy boshqa mamlakatlar to'plagan malakalariga asoslangan holda anti-inqiroz iqtisodiy konsepsiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Aytsa ham bo'ladiki,

XXRsi iqtisodiyoti inqirozga qarshi katta salohiyatga ega. Chunki, mamlakat o'z nazarini bozor iqtisodiyotining asosiy elementlarining muvozanatda rivojlanishi, shahar va qishloqlarning infratuzilma va ijtimoiy holatini yaxshilanishi, atrof muhitning tozaligi, ichki va tashqi munosabatlarni garmonal rivojlanishiga qaratgan.

2008 – yilning 4 – kvartalida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish tezligi sezilarli darajada pasaydi, shu kabi holat mamlakatning ishlab chiqarish sohasida sezilarli darajada ish sekinlashdi, energiya manbalariga bo'lgan talab qisqardi va shu bilan birga hom – ashyoga bo'lgan talab, undan tashqari aholi orasida transport xizmatlariga bo'lgan talab, bozor va boshqa davlat infratuzilmalarida narxi qimmat istemol tovarlar va mahsulotlarga bo'lgan talab birdaniga ketin-ma ketin yuqori tezlik bilan aholi ko'z oldida kamaya boshladi.

Mamlakat aholidi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan soha bo'lmish turar – joy va avtotransportlarining hususiylashtirish masalalariga ham inqiroz anchagina salbiy ta'sir ko'rsatdi. Undan tashqari mamlakat iqtisodiyotining nozik tarmoqlari birin ketin inqirozning ta'sirida zararga ishlay ketdi yani mamlakatning tashqi savdo sohalaridagi ko'rsatkichlar kutilmaganda ijobiy bo'lmagan natijalatni ko'rsata boshladi. Eng asosiylarida har xil tashkilotlarning buyurtmalar bilan bo'lgan xo'jalik ishlarida muammolar tobora ortib bordi. Shu bilan birga tahmin qilinganidek buyurtmalar ham kundan kunga kamaya boshladi, buning natijasida sezilarli darajada tashkilotlarning ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohalaridan olinadigan foyda darajasi paska tusha boshladi, aholiga tegishli bo'lgan sohalarda esa ish bilan taminlanish va bandlik bilan bog'liq bo'lgan muammolar yanada jadal jur'atda rivojlana boshladi. Bularning hammasini umumiy qilib aytganda, “aholining turmush sharoiti va ularning kapitaliga katta zarar keltirdi hamda mamlakatning moliyaviy rivojlanishiga putur yetkazdi“.

Lekin shuni ham hisobga aytib o'tish kerakki, davlat olib borayotgan inqirozga qarshi islohatlari natijasida, 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida, xitoyliklar o'zlarining yalpi ichki mahsulotini o'sishi sur'atini deyarli pastga tushirmadi.

Milliy valyuta hisoblangan - yuanning barqaror kursi va ichki iste'molni rag'batlantirishga qaratilgan inqirozga qarshi siyosat Pekinga eng qiyin vaziyatlarda ham iqtisodiyotning 8-10 foiz darajada o'sishini ta'minlashga yordam berdi. Biroq, savdo-sotiq disbalanslari (Xitoy import qilganidan ancha ko'p miqdorda eksport qiladi) va Xitoy iqtisodiyotining ortiqcha "qizib" ketishi dunyodagi bir qator ekspertlarni xavotirga solib qo'ydi.

Yevropa ittifoqi, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, Xitoy davlat qarzi borasida jiddiy muammolarga duch kelayotganicha yo'q. Xavf-xatar iqtisodiyotning haddan ziyod yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida paydo bo'lmoqda. Aholi farovonligining oshishi iste'mol hajmini oshirmoqda va bu mamlakatda narxlar darajasining o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, ko'chmas mulk bozorlarida sun'iy ravishda "ko'piklar" yuzaga kelmoqda va bu holatni nazorat qilish uchun hukumatdan ko'p mashaqqatlar talab qiladi. Ushbu ko'piklarning yorilib ketishi kapital bozorlarida ko'p milliardlik yo'qotishlar va shoklarni keltirib chiqargan holda, jahon iqtisodiyotiga judayam qimmatga tushishi mumkin.

Xitoy iqtisodiyotining ortiqcha "qizib" ketishi hamda mamlakatdagi iste'mol hajmining deyarli AQShnikiga yetib qolishi davlatni monetar siyosatni yuritishda yanada qattiqqo'l bo'lishga chaqirmoqda. Amaliyotda bu holat "iqtisodiy o'sishni sun'iy ravishda to'xtatish" deb nomlanadi.

Xitoyning markaziy banki hisoblangan Xalq banki mamlakatda narxlar o'sishini jilovlash maqsadida bir necha marta zaxiralash normasini va foiz stavkalarini oshirdi.

Yana bir narsani unutmaslik kerakki, Xitoyda iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi jahon bozorida xomashyo tovarlarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keladi. Bu esa investorlarni yana o'z kapitallarini riskli aktivlardan chiqarib olib, xavfsizlariga kiritishga undaydi.

2009 – yilda Xitoyining import va eksport sohalaridagi rivojlanish ko'rsatkichlarini pasayishi sekin asta sekinlasha boshladi, yilning oxiriga kelib, hatto rivojlanishni boshlagan sohalar ham asta – asta paydo bo'la boshladi. Shu vaqtning o'zidayoq, jahon bozoridagi talabning darajasi pasaya boshladi. Buning natijasida, jahon bozorlarida tovarlarning narxi birin-ketin global ravishda pasaya boshladi, bu esa ,Xitoy Xalq respublikasining import va eksport hajmini 13,9 % ga pasayishiga olib keldi, shundan ko'rinadiki, mamlakat shu yilning import va eksport sohasidagi 8 % ga rivojlanish ish rejasi o'z kafolatini oqlay olmadi.

Shu yilning o'zidayoq, qabul qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hajmi 90 mlrd. dollarni (albatta sug'urta, banklar va fond bozorlaridagi tarmoqlardan tashqari) tashkil etar edi. Bu esa kutilgan muvoffaqiyatdan ancha (2,4 mlrd. dollarga) past natija sanaladi.

**2009 – 2010 yillardagi XXRning inqirozga qarshi kurash uchun ajratgan
moliyaviy mablag'lar ko'rsatkichi²⁷. (mlrd yuanda)**

1.3.1 – jadval.

Tartib raqami	Maqsadga yo'naltirilganligi	Absolut hajm	Ulush, %
1	Transport infratuzilmasining qurilishi	1500	37,5
2	Sichuandagi boshqaruvini tiklash*	1000	25,0
3	Shaharlardagi ijtimoiy obyektlarni qurilishi	400	10,0
4	Qishloqdagi ijtimoiy obyektlar	370	9,25
5	Atrof muhitni himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanish	210	5,25
6	Ta'lim sohasidagi va sog'liqni saqlash tashkilotlariga	150	3,75
7	Boshqa maqsadlar**	370	9,25
	Umumiy bo'lib:	4000	100,0

Ma'lumot xinhua agentligidan olingan – <http://www.xinhuanet.com/>

* 2008 – yildagi yer qimirlashi natijasida jabr ko'rganlar

** moliya banklarining sektorlarini qo'llab quvvatlash

**2009 – yildagi ayrim makroiqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o'sish
ko'rsatkichlari²⁸.**

1.3.2 – jadval.

Tartib raqami	O'zgarishlar, birliklar	Absaluyt hajmi	Yillik/kvartal o'sish/o'sish sur'atiga qo'shilgan hissa, %
1	YaIM, trln. Yuan	33,5353	8,7*
2	Tashqi savdo – sotiq, mlrd.: Eksport Import	2207,22 1201,66 1005,56	-13,9
3	Yillik YaIM ning o'sishiga qo'shilgan hissa: ichki istemol Investitsiya Toza eksport		4,6 8,0 -3,9

²⁷ <http://www.xinhuanet.com/>

²⁸ <http://www.xinhuanet.com/>

4	Yillik YaIMning kvartal bo'ylab o'sishi, %: 1 – kvartal 2 – kvartal 3 – kvartal 4 – kvartal		6,2 7,9 9,1 10,7
5	Markaziy budjetning moliyaviy foydasi, trln. yuanda	6,85	11,7
6	Muomiladagi pul aylanmasi (M2)		27,7
7	Milliy pul valyutasida beriladigan kreditlarning ko'payishi	9,594	
8	P.I.I. ni bir yilda jalb qilingan, mlrd. Doll.*	90	
9	Xorijdan to'g'ridan to'g'ri investitsialar	43,3	6,5
10	Xorijdagi qurilish ishlaridan olingan foyda mlrd. Doll.	77,7	37,3
11	O'talimitli ishlab – chiqarishdan olinadigan foyda, trln. yuan	2,59	
12	Tashkilotlarning topgan ziyoni		-33,5
13	Asosiy fondlarga bo'lgan investitsiyalar, trln. yuan	22,4846	30,1
14	Shaharlardagi investitsiyalar	19,4139	30,5
15	Shahar va qishloqlardagi band bo'lgan aholi, mln. kishi	11,02	
16	O'rta aholining toza foyda qiymati, yuanda: Shaharda qishloqda	17175 5153	9,8 8,5

* Banklar, fondlar va sug'urta sohalarini hisobga olmaganda.

** Yilning yanvaridan noyabr oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ma'lumot sinhua agentligidan olingan – <http://www.xinhuanet.com/>

Xitoy manbalariga qaraydigan bo'lsak, ularda bir qancha mamlakat infra tuzilma muammolari bilan bog'liq bo'lgan aholi norozichiligini uchratamiz. Ya'ni inqiroz davrida qurilishi to'xtab qolgan katta va kichik obyektlar, foyda kelmas

infratuzilmalarning qurilishi to'xtab qolishi, ekologiya bilan bo'lgan muammolar va viloyatlarda suv bilan taminot ishlarini to'xtab qolishi natijasida xitoy xalqining agressiv harakatlari paydo bo'lishini kuzatamiz.

Shunday qilib, butun jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi xitoy oldiga bir qancha yengib o'tishi kerak bo'lgan muammolarni qo'ydi, ya'ni ichki bozorini kengaytirish kerakligini ko'rsatdi, undan tashqari tashqi ishlardagi investitsiyalarning kuchini ichki ishlab – chiqarish uchun yo'naltirishga undadi.

II BOB. XIToyNING JAHON MOLiyAVIY-IQTISODIY INQIROZIDAN KEYINGI IQTISODIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

2.1. Xitoyning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi chora-tadbirlari

Inqirozning ilk vakillari mamlakat iqtisodiyotida ko'rinishni boshlashi bilan, Ven Sya Bao mamlakatning 2009 – 2010 – yillarda butun jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozga qarshi anti-inqiroz choralarini ishlab chiqishlik va mamlakat iqtisodiyotining asosiy dastaklarini mahkam ushlab, mustahkam va shiddat bilan rivojlanadigan iqtisodiyotni yaratish kerakligini takidlab o'tadi. Buning uchun u makro darajada islohatlarni olib borish kerak edi, buning natijasida iqtisodiy rivojlanishning pasayishini to'xtatib, shiddat bilan rivojlanishga olib kelardi.

Hokimyat tomonidan e'lon qilingan inqirozga qarshi choralar va unga tegishli bo'lgan rejalar 2008 – yilning kuz oyidan amaliyotga joriy etiladi. Bu choralar puxta ishlab chiqilgan bo'lib, bir biriga bog'langan, biri ikkinchisiga yo'l ochib beruvchi va asosiysi inqiroz ta'sirini to'xtatib, kutilgan najilarni kelajakda oqladi. Ular o'zaro guruhlanib quidagilardan tashkil topgan:

- **Real sektorlar:** ichki va tashqi bozorda aholi uchun asosiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi sektorlarni shu bilan birga eksportga iqtisoslashgan va ichki bozorni to'ldirib turuvchi tashkilotlarni himoya qilib, ularni qo'llab quvvatlash; yanada ishlab chiqarish va transport sohasidagi infratuzilmalarni rivojlantirish; o'rta va kichik biznesning rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash.

- **Inavatsion tizim:** davlat ilmiy – texnikaviy siyosatini aktivlashtirish; hususiylashgan tarzda ish olib boradigan tashkilotlarga o'zi inavatsion yo'llarni topishga imkon yaratib berish;

- **Moliyaviy muhit:** davlat investitsiyasining mashtabini kengaytirish; ishlab chiqaruvchi sektorlar va aholi uchun soliq imtiyozlarini yaratib berish; jahon bozoridagi tovarlarga nisbatan ichki ishlab chiqaruvchilar tovarilarining narxini stabillashtirish; o'rta va kichik biznes bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga

moliyaviy yordam; eksport sohasida islohatlar o'tkazib, uni moliyaviy yordam bilan taminlash;

– **Ijtimoiy soha:** ishsizlikka qarshi kurashish va bandlik muammolarini yechish yo'lida ichki talabni kengaytirish; yangi turar joylarni qurish; ijtimoiy taminotni yanada rivojlantirish va aholida ijtimoiy kompleks programmalarini ishlab chiqish; iqtisodiy inqiroz va ijtimoiy sohadagi o'zaro tafovudni qisqartirish;

Agar ahamiyat bersak inqirozning tasiri va unga bo'lgan qarshi kurashga, 2008 – 2010 yildagi mamlakat ichki talabini kengaytirishga boshida davlat 4 trln. yuan (586 mlrd. doll) ajratmoqchi bo'lgan. Bu pullarning asosiy qismini mamlakatning markaziy budjetidan, ozgina qismi mahalliy budjetdan (provinsiya va tumanlar darajasida) va yana bir qismi hususiy tashkilotlardan soliq sifatida olingan pullardan kirgizilar edi. Bu islohatlar yuqorida 1 – jadvalda keltirilgan.

2008 – yilning 1 – kvartalidayoq hokimyat tarafida yuqorida keltirilgan islohatlarga 1 trln 180 mlrd yuan (172,8 mlrd doll) bermoqchi bo'lgan.

Mamlakat ichki talabini oshirish ishlarini davlatning vaqtinchalik umummilliy harajatning kengayishi hisobiga olib boriladi;

– umumiy aholining turmush darajasini oshirish; qishloqda yashovchi va shahardagi maoshi kam bo'lgan aholining dotatsiyasi oshirilishi;

– savdo sotiq sohasini rivojlanishining hisobiga qishloq, tuman, shaharlarda hizmat ko'rsatish sohasini ham rivojlantirish;

– Har doimgidek ichki talab va aholini bantligini stabil holatda ushlab turish;

2008 – yildayoq Den Sya Bao mamlakat ichidagi tovarlar narxini meyorda ushlab turish va jahon bozoridagi narxdan uzoqlashib ketmasligi uchun qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishga va don mahsulotlarini yetishtirib beruvchilarning datatsiyalarini oshirib berdi. Uch marta mamlakat ichida narxlarni tushushini, mamlakat ichida difitsit bo'lgan mahsulotlarni import qilinishini bir necha barga kengayishini, mamlakat ichidan don mahsulotlarining eksportga chiqib ketishini oldini olishga, undan tashqari kimyoviy o'g'itlarni mamlakat tashqarisiga chiqish yo'llariga nazoratni qo'yilishi ishlarida va davlat zahirasisiga kirgiziladigan

tavarning turlarini ustidan qattiq nazoratga olinishida katta islohatlar o'tkazilib, unga erishiladi. Mamlakatda beshta sohani subsidiyalash ro'y beradi, ularni ichida inqiroz natijasida neftning narxi oshganligidan qattiq zarar ko'rgan baliqchilik sohasi ham bor edi.

Davlat tarafdin katta yordamni ayniqsa xom – ashyo ishlab chiqaradigan tashkilotlar oldi. Ulardan tashqari kam ish haqqi oladiganlar ham chetda qolishmadi, ularga beriladigan subsidiyalar zamonaviy ko'rinishda kengaytildi, hattoki yarim yoki to'liq o'quv rejasi bilan o'qiydigan magistrant va aspirant talabalar pul ko'rinishida yordamlar olib turishdi.

Tashkilotlar va aholining soliq masalasida ham islohotlar o'tkazildi, ularga fiskal siyosatining og'irligidan yengilliklar yaratib berildi. Aholi va ishlab chiqarish bilan shug'illanadigan tashkilotlardan foyda solig'ining foiz stavkasi pasaytirildi, omonat pullaridan va qimmat baho qog'ozlarning operatsiyalaridan olinadigan foyda solig'ining foiz stavkasi vaqtinchalikka olib tashlandi. Vaqtinchalik yashash uchun va uy – joy qurulishi sohasiga ham moliyaviy yordamlar ko'rsatila boshladi.

Butun kuch-g'ayratni to'plagan holda, g'alla yetishtiradigan rayonlarga uni yetishtirishda yordam ko'rsatish va uning natijasida qishloqlardagi dehqonlar daromadining o'sishiga ta'sir ko'rsatish. Mamlakatda, 2008 – yildan boshlab, bir qator davlat bazalarini tashkil etish loyihasi tuzildi. Ushbu loyiha bo'yicha, Xitoyda yirik g'alla yetishtiruvchi uezdlar va davlat fermalari tanlab olinib, ularda yuqori navli bug'doy va don mahsulotlari yetishtirilmoqda. Bu yerlarni sotib olish uchun davlat tomonidan maxsus fondlar tuzilgan bo'lib, ular yuqori hosil beruvchi, barqaror hosilli maydonlarga aylanmoqda. Bu esa, mamlakat g'alla yetishtirish salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Qishloq iqtisodiyotini tartibga solishda xitoy hukumati "ko'proq berish, kamroq olish va katta erkinlik berish" tamoyillarini ishlab chiqdi. Ushbu tartibga solish kursi dehqonlarni ish bilan ta'minlash sohasini kengaytirishga, ilmiy-texnikaviy jarayonni tezlashtirishga, qishloqlarda islohotlarni chuqurlashtirishga, sarmoyalarni ko'paytirishga, qishloq xo'jaligiga kafolatlar berish va uni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgandir.

Hukumat inqiroz davrida rivojlanishi uchun quidagilarni o'z bo'yniga oldi: 20 yil ichida qishloqlarda aholi daromadini o'rtacha jon boshiga 8000 yuanga yetqazishga erishish. Ya'ni oxirgi 20 yil ichida, ya'ni 1980 yildan to 2000 yillargacha dexqon oilasining aholi jon boshi to'g'ri keladigan daromadi 4,5 baravarga oshdi va u 2000 yilda 2253 yuanni, 2005 yilda 3255 yuanni, 2007 yilda esa 4140 yuanni tashkil qildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish bo'yicha har tomonlama chora-tadbirlar qabul qilindi.

G'alla yetishtirish salohiyatini saqlash va uni oshirish uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuqori mehnat unumdorligi talabiga asoslanib, kengaytirish va chuqurlashtirish lozim. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida industrial va intensiv uslublarni qo'llash va uning samaradorligini oshirishda va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rentabelligini oshirishda tolmay yangi imkoniyatlarni ishga solish kerakligini. Qishloq xo'jaligini rivojlanishini industrial yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash. Xitoy hukumati qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini industriallashtirish borasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlab, bosh korxonalarga jalb qilinayotgan sarmoyalarni ko'paytirishni.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni kuchaytirish va ilg'or agrotexnikani joriy qilish lozim. Buning uchun, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy izlanishlar ehtiyojiga ketadigan assignatsiyalarni sezilarli darajada ko'paytirish va agrotexnika yutuqlarini ishlab chiqarish kuchlariga aylantirish uchun sarflanadigan pul vositalarini ko'paytirish. Urbanizatsiya sur'atlarini tezlashtirish, ortiqcha qishloq ishchi kuchi oqimini shaharlar xo'jalik strukturasiga joylashishini qo'llab-quvvatlash. Mamlakat ekin ekish maydonlarini saqlab qolish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tarkibini tartibga solishni qo'llab-quvvatlash, qashshoq qishloqlarga maqsadli yordam ko'rsatish.

Xitoy qishloqlarida uzoq vaqt mobaynida "xalq kommunasi" tizimi mavjud bo'lib, unda yer va boshqa asosiy qishloq xo'jaligijagi ishlab chiqarish vositalari umumiy mulk, ya'ni barcha kommuna a'zolari mulki hisoblanar edi. Ular

tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar taqsimoti qisman, kommuna a'zolarining qilgan mehnatlariga qarab, qisman esa, dehqonlarning oila a'zolari soniga qarab taqsimlanar edi. Undan tashqari, dehqonlar ekin ekishda tanlash huquqiga va yetishtirilgan mahsulotlarni boshqa mahsulotlarga almashtirish huquqiga ega emas edilar.

Mamlakatda boshlangan agrar islohotlar mana shu cheklovlarni kamayishiga olib keldi. Dehqonlar o'zlari yetishtiradigan mahsulotlarini faqatgina bozorga mo'ljallab tashkil eta boshladilar. Davlat tomonidan esa, faqatgina 5 xil mahsulot bo'yicha, ya'ni, paxta, g'alla, tamaki, sholi va jun mahsulotlari buyurtmasi saqlanib qoldi. Islohotlar davrida, mana shu mahsulotlarga va yana sotib olish rejasiga tushgan mahsulotlar bo'yicha narxlarni davlat o'zi belgiladi. Qolgan qishloq xo'jalik mahsulotlari esa, bozor talabiga binoan sotilishi yo'lga qo'yildi. Shuni ta'kidlash joizki, davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish uchun belgilangan narxlar, bozor narxlaridan katta farq qilgani yo'q. Islohotlar jarayonida masalan, don mahsulotlariga narx atigi 1,5 martaga, paxtaga 1,7 martaga, go'shtga 3,8 martaga, baliq va baliq mahsulotlariga 3,8 martaga narxlar ko'tarildi.

Jahon yuzida paydo bo'lgan tezlik bilan rivojlanuvchi va mamlakatlararo iqtisodiy birlikni paydo qilayotgan Globalizatsiya jarayonlariga yuz tutish, Xitoy iqtisodiyotini to'liq ochilishi uchun maksimal imkoniyatlarni yaratib berish uchun jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish harakatida o'zining iqtisodiyotini bir qancha guruhliy reformalariga nazar tashlab yangiliklar kiritdi. Shu islohatlar o'tkazish bilan bir vaqtning o'zida o'zining iqtisodiy faoliyatini jahon bozorlarida hech qanday muammosiz olib bora oladi.

Xalqaro tashqi savdo – sotiq tizimi va investitsiyalar muammolarini ham yechib olgani uchun, hozirgi kundagi talablarga javob bera oladigan iqtisodiyotni yuritish olmoqda. Xitoy Xalq Respublikasi o'z navbatida aniq qonun qoidaga bo'y sinadigan va adolatli xalqaro munosabatlarni yaratish va ularni mustahkamlash tarafdorlari qatorida turibdi. Chunki hozirgi kunda jahon savdo – sotiq tashkiloti

bo'lmish VTO iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirishga nazarini qaratgan va ularning ichida Xitoy chetda turayotgani yo'q.

Xitoy jahonning har xil tashkilotlari bilan hamma “sovuq urishi” davridan so'ng chetga surib qo'ygan tabiatni ifloslanishi, terorizm, xalqning o'zishi va narkotik moddalar kabi global muammolarga qarshi kurashmoqda. Yana nazardan chiqazmslik kerak, 1997 – yil dekabr oyida Yaponiyaning Kioto shahrida xalqaro konfirensiya o'tkazildi, unda jahon bo'ylab klimatning issib, tabiatda katta o'zgarishlar sodir bo'layotganligi haqidagi muammolarni ko'rib chiqilgan. Yig'ilishdan keyin qabul qilingan qaror 2008 – yildan 2012 – yilgacha barcha tabiatga zarar keltirayotgan va atmosferada parlik holatini paydo qilayotgan har xil turdagi gazlarni havoga chiqazib yuborilishini taqiqlash, atmosfera duokis uglerodni chiqarib yuborishni qat'iyyan taqiqlash to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Bu yig'ilish tabiatni sun'iy ravishda o'zgarishlarga yuz tutishini oldini olish yuzasidan qo'yilgan eng muhim qadamlardan bo'ldi va yig'ilish natijasi sezilarli darajada tabiatning yaxshilanishining sababiga aylandi.

Xitoy oldida AQSH bilan do'stona iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash ishlari turmoqda va u albatta hozirgacha olib borilmoqda. Chunki bu ikki mamlakat jahon bo'ylab ishlab chiqarishning katta qismini o'z ichiga oladi. Ko'rib turganimizdek bu aloqalarni tiklash va ularni mustahkamlash qanchalik muhimligini, ayniqsa jahon bo'ylab barcha korxonalarning aksiyalari mana shu ikki mamlakatda bo'lganda.

Jahon maydonida kuzatayotganimizdek hozirda Xitoy iqtisodiyoti juda ham shiddat bilan rivojlanayotib Osiyo mamlakatlari orasida nufuzli joyni egallaganidek Yaponiya ham sezilarli og'irlikni egallaydi. Yaponiya juda keng dialoglar yo'li bilan yuqori liderlar orqali Yaponiya – Xitoy munosabatlarini mustahkamlamoqda. Axir jahon tashkilotlari orasida meyorli va vaqti bilan o'yno'vchan siyosiy hurmatga ega bo'lgan Xitoy – har qanday davlatning iqtisodiyotini meyorda ushlab turadigan XXI asr mo'jizasi. Mana shuning uchun Yaponiya bu yo'nalishda bo'lish uchun bor kuchini qaratadi.

Xitoy va Kareya Respublikasini bozor iqtisodiyotiga bo'lgan qarashlari bir xilligi ularni birlashtiradi va ularning umumiy havsizlikni taminlash tushunchalari bir biriga o'xshashdir. Mana shuning uchun Xitoy Kareya Respublikasi bilan diplomatik aloqalarni yuritish tashqi siyosiy munosabatlari bilan bevosita bog'liqdir. Prezidentning administrati Kim Te Chjuna suhbatidan bilsak bo'ladiki, Kareya Xitoy bilan yuritiladigan munosabatlari oldingi vaqtlarda bo'lib o'tgan barcha o'zaro qilingan ishlar va rejalashtirilayotgan islohatlarni nazarga olgan holda yuritiladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Xitoy tashqi savdosiga 2008 yilning ikkinchi yarmidan salbiy ta'sir o'tkaza boshladi. Tashqi talabning pasayishi natijasida Xitoy tashqi savdosi 2009 yilda 2,2 trln. dollarni tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich 2008 yilga nisbatan 13,9% ga qisqardi. Xitoy hukumati tashqi savdoni rag'batlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqdi: birinchidan, tashqi savdo tashkilotlari oldiga yangi bozorlarni izlash va o'zlashtirish vazifasi qo'yildi, ikkinchidan, eksport bojlarining hajmi qayta ko'rib chiqildi, uchinchidan, 2008 yilning dekabrda 3770 mingta eksport tovarlari bo'yicha QQSni qaytarish stavkalari pasaytirildi. Bu mahsulotlar Xitoy eksporti hajmining 28% ini tashkil etadi²⁹.

Xitoy hukumati tomonidan tashqi savdoni inqirozdan keyingi davrda rivojlantirish maqsadida "yo'l xaritasi" e'lon qilindi. Ushbu ma'ruzaga muvofiq 2020 yilga borib mamlakat tashqi savdo aylanmasi 5,3 trln. dollarga, jumladan, tovarlar savdosi 4,3 trln. dollarga, xizmatlar savdosi esa 1 trln. dollarga o'sishi bashorat qilinmoqda³⁰.

Fikrimizcha, Xitoy eksportining pasayish sur'atlari vaqtinchalik holat hisoblanadi. Chunki, bir tomondan, xitoy eksporti past tannarxi tufayli raqobatbardosh hisoblansa, ikkinchi tomondan, Xitoy aksariyat mahsulotlar bo'yicha, jahon bozorida monopol mavqeyga egadir. Misol uchun, 2008-yilda 10 mlrd. juft poyabzal (jahon ishlab chiqarish hajmining $\frac{1}{2}$ qismi), jahon o'yinchoqlar

²⁹www.economist.com

³⁰<http://russian.people.com.cn/31518/6955908.html>

ishlab chiqarish hajmining 75% i, jahon guruch yetishtirish hajmining 35% i, energiya tejoychi lampalarning 85% idan foydalangan, cho'chqa go'shtining 50%i, o'rdak va g'oz go'shtlarining 75% i, o'g'itlarning 30% i, stanoklarning 50% i, musiqa asboblarning 81% i, yangi yil sovg'alarining 70% i, rangli televizorlarning 98% i Xitoyda ishlab chiqarilgan³¹.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini pasaytirish bilan birga xitoy hukumati inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha pul va fiskal siyosati bilan bog'liq turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitiga Xitoy markazlashgan hukumat tizimi rivojlangan demokratik mamlakatlarga qaraganda tezroq moslasha oladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda bir qarorga kelish uchun ko'p vaqt talab etiladi. 2008 yil 29 sentyabrda Vakillar Palatasi (AQSH Kongressining quyi palatasi) moliyaviy muassasalarning zarar ko'rgan aktivlarni olish uchun umumiy fondan 700 mlrd. dollardan foydalanish yo'li bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirish to'g'risida qonunni rad qilgandan so'ng, dunyo moliyaviy bozorlarida inqiroz boshlandi, ammo Xitoyni bu kabi vaziyat izdan chiqarishini tassavur qilish qiyin.

Xitoy hukumatining inqirozga qarshi dasturi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2009 yilda Xitoy iqtisodiy o'sish sur'ati 8,7% ni tashkil etdi. Shu davr ichida 2,6 mln. yangi ishchi o'rinlari yaratildi, shahar va qishloq aholisining daromadlari mos ravishda 11,2 va 6,8% ga oshdi.

Xitoy hukumatining inqirozga qarshikurash dasturining xarajatlar tarkibi³²

2.2.1-jadval

	Jami moliyaviy mablag'lar, 2008–2010 yy., mlrd. yuan
Jami	4000

³¹www.economist.com

³²http://mirec.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=101

Uy-joy qurulishi	400
Qishloq infratuzilmasi (suv bilan taminlash, elektroenergiya, mahalliy yo'llar)	370
Transport (temir yo'llar, aeroportlar, avtomagistrallar)	1500
Sog'liqnisaqlashvata'lim (maktablarvakasalxonalar qurish)	150
Energetika va atrof-muhit himoyasi	210
Innovatsiyalar	370
Sichuanprovinsiyasidayer qimirlashi tufaylizarar ko'rganhududlarni ta'mirlash, 2008 y.	1000

Xitoy hukumati 2008 yilda moliyaviy inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun 585 mlrd. doll. sarfladi. Mazkur mablag'lar Xitoy iqtisodiyotining yengil sanoat, mashinasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, po'lat eritish, informatsion texnologiyalarni rivojlantirish, neftkimyo, logistika, rangli metallurgiya kabi tarmoqlariga yo'naltirildi. Xitoy ASEAN davlatlari bilan birgalikda investitsiya hamkorligi bo'yicha 10 mlrd. dollarga teng miqdorda Fond tashkil etishni rejalashtirgan. Fond mablag'lari Xitoy-ASEAN erkin savdo zonasini tashkil etishning birinchi qadam hisoblanadi.

Demak, Xitoy hukumatining chora-tadbirlari, inqiroz oqibatlarini kamaytirish bo'yicha choralarni va davlat xarajatlarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Xitoy hukumati tomonidan olib borilgan inqirozga qarshi choralar xitoy iqtisodiy siyosatining inqiroz boshlanmasdan e'lon qilingan uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi.

2.2. Xitoyning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ngi davrda iqtisodiy o'sish sur'atlari va unga ta'sir etuvchi omillar

Xitoy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarini yanada chuqurlashtira boshladi. Ayrim mutaxassislarning fikriga ko'ra Xitoyning iqtisodiyotni modernizatsiyalash modelini "investitsion model", deb atashni taklif etishmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoydagi oxirgi 20 yil ichidagi iqtisodiy o'sishning asosiy omili jamg'arish normasining yuqoriligi hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ko'rsatishicha, inqiroz sharoitida beqaror yoki yuqori bo'lmagan jamg'arish normasiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishigina xos bo'lmasdan, ular inqirozdan jiddiy zarar ko'rdilar.

2.2.1-jadval

2008-2012 yillarda ayrim mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari, foiz hisobida³³

Mamlakatlar	2008	2009	2010	2011	2012
Xitoy	9,6	9,2	10,4	9,3	7,8
Hindiston	3,9	8,2	10,1	6,8	5,4
Brazilya	5,2	-0,3	7,5	2,7	1,5
Rossiya	5,2	-7,8	4,3	4,3	3,5
Korea Respublikasi	2,3	0,3	6,3	3,6	2,7
AQSh	-0,4	-3,5	3,0	1,7	2,2
Yaponiya	-1,2	-6,3	4,0	-0,6	1,9
Jahon	2,8	-0,6	5,1	3,8	3,3

Xitoyliklar uchun, odatda, kamtarona iste'mol xarajatlariga ega bo'lgan holda jamg'arishga moyillik xosdir. Oxirgi o'n yillik ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, darhaqiqat, mamlakatda xonadon xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini qisqarishi kuzatilmoqda. Agar ushbu ko'rsatkich 2000 yilda 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 36 foizga teng bo'lgan. Ushbu holat Xitoyda pensiya to'g'risidagi qonunning mavjud emasligi va pensiya yoshidagi kishilarning oz qismi (Xitoy kommunistik partiyasining rahbar xodimlari va shaharlardagi davlat xizmatchilari - 70 mln. kishi) pensiya bilan ta'minlanganligi bilan izohlanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra ishlayotgan xitoyliklar qarilikni

³³data.worldbank.org

ta'minlash uchun jamg'armaga ko'proq mablag' yo'naltiradilar. Xitoyda moliya bozorining rivojlanmaganligi aholining pul mablag'larini investitsiyalashning boshqa yo'nalishlariga sarflashga majbur qilmoqda.

Shunga qaramasdan Xitoyda aholi iste'moli mutlaq ko'rsatkichlarda o'sib borish tendensiyasiga ega.

Xitoyda yalpi mintaqaviy mahsulotning yarmidan ortig'ini janubi-sharqiy qirg'oq bo'yi mintaqalari ishlab chiqaradi. Mamlakatning shimoli-g'arbiy mintaqalari maydoni jihatdan katta bo'lsa-da, mintaqaviy mahsulotning 10% ga yaqin qismini ishlab chiqaradi³⁴. Xitoy ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy muammoni hal etish uchun jamg'arish normasini yuqori darajada (shu jumladan, infratuzilmaga investitsiya sarflash) ushlab turishga majbur bo'lmoqda. Xitoyda ushbu dolzarb muammo markaziy va g'arbiy mintaqalariga ustun darajada investitsiya yo'naltirish va ushbu ichki mintaqalarda ishlab chiqarilayotgan xomashyo va yoqilg'i tovarlariga belgilanadigan ichki bahoni oshirish orqali ham hal etilmoqda.

Xitoy iqtisodiyoti uchun modernizatsiya bu nafaqat jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro aloqani qaytadan ko'rib chiqish, balki mamlakatdagi moliyaviy va texnologik oqim yo'nalishini sharqdan markazga va g'arbga o'zgartirish hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotiga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keyingi yillarda yildan-yilga ko'proq ichki va g'arbiy mintaqalarga yo'naltirilmoqda. Jumladan, hozir Xitoy iqtisodiyotiga sarflanayotgan investitsiyalarning 60 foizi mamlakatning yalpi ichki mahsulotining 60 foizini ishlab chiqaruvchi sharqiy mintaqalarga sarflangani holda, mamlakatning 28 foiz yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqaruvchi markaziy mintaqalarga 20 foiz va 15 foiz yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqaruvchi g'arbiy mintaqalarga investitsiyalarning 15 foizi yo'naltirilmoqda. Agar ushbu mintaqalarni mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmidagi ulushi

³⁴ Ushbu manba muallif tomonidan tuzulib tahlil qilindi


2000 yilda 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 30 foizga yetdi.

Xitoy iqtisodiyotida yuqorida qayd etilgan yutuqlar bilan birgalikda ayrim muammolar paydo bo'lmoqda. Ushbu holat Xitoyning iqtisodiy siyosatiga, jumladan investitsiya siyosatini amalga oshirish amaliyotiga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, iqtisodiy islohotlarga bo'lgan davrda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 5,3% ni tashkil etgan bo'lsa, sanoat islohotlari davrida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 10,5% ni tashkil etgan (2.2.1-diagramma).

2.2.1-diagramma

Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari³⁵



Fikrimizcha, Xitoy islohotlarining muvaffaqiyat omillari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, davlatning iqtisodiyotdagi roli. Davlat asosiy fondlarga sarflanayotgan mablag'larning asosiy investori hisoblanadi. Xususan, 2007 yilda byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ajratilgan mablag'lar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23,8% ni tashkil etdi.

Ikkinchidan, yuqori jamg'arish normasining mavjudligi. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, iqtisodiyotda modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy

³⁵Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma.-T.: Moliya, 2011. - b; World Economic Situation and Prospects 2014. New York, 2014.R. 155.

o'zgarishlarni amalga oshirish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratgan mamlakatlar uzoq davr mobaynida yuqori investitsion faollikni namoyish etishgan. Xitoyda jamg'arish normasi sanoat islohotlarining hamma davrida yuqoriligicha saqlanib qolgan. 1978-2010 yillarda jamg'arish normasi mamlakat YAIMga nisbatan 38,0% dan past bo'lmagan, jumladan, bu ko'rsatkich 2010 yilda joriy narxlarda 53,7% ni tashkil etdi (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

**Xitoyda jamg'arish normasi, YaIMganisbatan foiz hisobida
(joriy narxlarda)³⁶**

Yil	Kapitalni jamg'arish, jami	Yalpi investitsiyalar, jami	Shu jumladan:		Tovarlar va xizmatlarning sof eksporti
			Asosiy kapital	Zaxiralarning qo'shimcha o'sishi	
2000	37,7	35,3	34,3	1,0	2,4
2005	47,1	41,6	39,7	1,9	5,5
2006	49,3	41,8	39,6	2,2	7,5
2007	50,5	41,7	39,1	2,6	8,8
2008	51,6	43,9	40,7	3,2	7,7
2009	52,1	47,7	45,5	2,2	4,4
2010	53,7	...	...	...	7,9

Xitoyda ish haqining ortishi eksportga chiqarilayotgan mahsulotlarning qimmatlashuviga va xorijiy investitsiyalar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ishchi kuchi arzon bo'lgan mamlakatlarga oqib o'tmoqda. Natijada Xitoy tovarlarini ishlab chiqarish xarajatlari o'sib raqobatbardoshligi pasaymoqda.

Investitsiyalarning qaytimi pasayish tendensiyasiga ega. Investitsiya normasi oxirgi yillarda 48 foizni tashkil etgani holda, ko'psonli ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Ushbu holat ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarib raqobatni haddan tashqari kuchayishiga, yaqin yillarda investitsiyalar hajmini va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keladi.

Shaharlarning kengayishi tufayli yer resurslari tanqisligi va qishloq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining keskinlashuvi. Natijada mamlakatda 250 mln.mehnatga layoqatli qishloq aholisi ichki migrantlarga aylandi.

³⁶ Гельбрас В. Россия и Китай в условиях глоального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения, №11, 2011. С. 64.

Atrof-muhitning ifloslanishi. Jumladan, suv, havo, tuproqning ifloslanish darajasi, kislotali yomg'irlar, atrof-muhit ifloslanishi tufayli kasalliklarning ko'payishi muammosi kuchayib borayotganligi. Ushbu ekologik muammolarni hal etish katta mablag'larni talab etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar qiymatining o'sishiga, eksport hajmining pasayishiga va pirovard oqibatda iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy xarajatlarning ortishi. Aholining qarishi, hayotiy standartlarning ko'payishi, aholi turmush darajasidagi tafovutni qisqartirish, ichki iste'molni oshirishning zarurligi davlatning majburiyatlarini ko'paytiradi. Xitoy yaqin va o'rta istiqbolida ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yildan-yilga ko'p mablag' sarflashiga to'g'ri keladi.

Xitoyda yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida xitoy kommunistik partiyasining 2013 yil 9-12 noyabrda bo'lib o'tgan plenumida "Islohotlarni har tomonlama chuqurlashtirish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida eksportga ustuvorlik berishdan ichki iste'molni rag'batlantirishga o'tiladi.

Ijtimoiy masalalarni hal etish uchun urbanistik revolyutsiyani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Ushbu dasturga muvofiq munitsipial obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali xususiy jamg'armalarni maksimal, keng jalb qilgan holda ish joylarini yaratish orqali qishloq aholisini shaharlarga ko'chirish ko'zda tutilmoqda. Ushbu rejaga muvofiq yaqin o'n yil ichida shaharlar yaqinida qurilgan poselkalarga 180 mln. qishloq aholisi ko'chirilishi rejalashtirilmoqda. Natijada shaharlarda yashaydigan aholi soni 1 mlrd. kishiga yetadi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII besh yillik rejasining iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritilishi kutilmoqda.

Birinchidan, bu davrda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash emas, balki barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish vazifasi


qo'yilgan. YAIMning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini 8% (XI besh yillikda - 11,2%) atrofida ta'minlash.

Ikkinchidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishga erishish. Shahar va qishloq aholisi daromadlarini oshirish dinamikasini iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan tenglashtirish, ish haqini mehnat unumdorligini yaxshilash evaziga oshirish ko'da tutilmoqda. Shahar va qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlarini yiliga 8% ga oshirish rejalashtirilgan.

Xitoyda ishsizlik darajasini pasaytirish uchun XII besh yillikda xususiy tadbirkorlik, ishchilarni kasbiy jihatdan qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, oliy ta'lim maktabi bitiruvchilari va qishloq joylardan kelayotgan ishchilarni ishga joylashtirish davlat dasturlarini amalga oshirishni rag'batlantirish rejalashtirilgan. Misol uchun, 2009 yilda armiyada xizmat qilish 130 mingta bitiruvchi ishga qabul qilingan. Umuman, XII besh yillikda shahar aholisi uchun 45 mln., qishloq aholisi uchun esa 40 mln. ishchi o'rni yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, 2011-2015 yillarda ishsizlik darajasini 5% atrofida saqlab turish rejalashtirilgan.

Inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari aholi turmush darajasini oshirish va o'rta sinfni yanada kengaytirish bilan bog'liq. 2008-2011 yillarda Xitoy hukumati narxlarning o'sish sur'atlarini o'rtacha 4-5% atrofida saqlab qolishga erishdi (2.2.2-diagramma).

**Xitoyda istemol tovarlarinarhining o'zgarishi, o'tgan yilga nisbatan %
da³⁷**



Shunga qaramasdan mamlakatda quyidagi sabablarga ko'ra inflyatsiya darajasining o'sib ketish xavfi saqlanib qolmoqda:

- tovarlar jahon narxining o'sishi;
- mamlakat ichida pul massasining yuqoriligi;
- energiya resurslari, xomashyo, yer, ishchi kuchi va boshqa ishlab chiqarish omillari tannarxining ortishi;
- ish haqi, aholiga ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlarning ko'payishi.

Uchinchidan, Xitoy iqtisodiyotining texnologik tarkibini o'zgartirish. Mamlakatda innovatsion kurs milliy innovatsiya strategiyasi sifatida talqin etilmoqda. 2020 yilga borib Xitoy innovatsion davlatga, 2050 yilda esa fan va texnika sohasida jahondagi yetakchi mamlakatga aylanishi zarur. Xitoyda davlat tomonidan maksimal darajada qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan yuqori texnologik tarmoqlar belgilab olingan: uyali aloqa; raqamli televideniye; keng

³⁷ Михеев В., Луконин Н., Сафронова Е. Дальше – без заветов. //Мировая экономика и международные отношения, №12, 2011. С. 72.

miqyosli Internetga kirish; yangi avlod displeylari; biofarmatsevtika; yangi materiallar; energiyaning yangi manbalari; axborotlashtirish.

To'rtinchidan, XII besh yillikda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibini optimallashtirish rejalashtirilgan. Iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibi mintaqaviy soliq va ruxsat berish tizimini qo'llash orqali o'zgartiriladi. Yuqori texnologik tarmoqlarga (fan sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarish, zamonaviy noishlab chiqarish xizmatlari, yangi energetika, ekologiya) yo'naltiriladigan investitsiyalar imtiyozlarga ega bo'ladi. Energiya sig'imkorligi yuqori va atrof-muhitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarishga investitsiyalar sarflash qat'iy cheklanadi. Xorijiy investitsiyalar oqimining aksariyat qismi G'arbiy va Markaziy Xitoy mintaqalariga yo'naltiriladi. Bunda xorijiy investorlar uchun joy tayyorlash maqsadida mintaqaviy soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirishga davlat investitsiyalaridan foydalaniladi³⁸.

Xitoyda ijtimoiy sohada beqarorlik ortib bormoqda. Ijtimoiy muammolardan biri kambag'allarga yordam berish siyosatining jamiyatda chuqur tabaqalashuv ortib borayotgan vaqtda amalga oshirilishidir. Xitoyda yuz minglab millionerlar, o'nlab milliarderlar jamiyatda yangi hayot tarzini shakllantirmoqda.

Hozirgi vaqtda Xitoyda shakllangan o'rta sinf yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarni talab qilmoqda. Xitoy iqtisodiyoti keng miqyosda sifatli tovarlar va xizmatlar taklifini ta'minlab bera olmadi. Aksariyat iste'molchilar sifat, dizayn sababli G'arb brendlarini ma'qul ko'rishmoqda va ushbu tovarlar uchun Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan ko'proq pul to'lashga tayyordirlar. Natijada xitoyliklar tomonidan xorijiy lyuks tovarlarga, xususan, obro'li kiyim-kechaklarga sarflanayotgan xarajatlar ortib bormoqda.

2020- yilga bori,b Xitoyning jahonda modaga aylangan kiyim-kechaklar sotib olish bo'yicha ikkinchi yirik bozorga aylanishi bashorat qilinmoqda. Bu bozorning hajmi 60 mlrd. dollardan 200 mlrd. dollargacha ortadi. Hozirda xitoy

³⁸Yuqoridagimanbalarasosida.

iste'molchilari o'z daromadlarining 40% ini modaga aylangan kiyim-kechaklar va aksessuarlar sotib olishga sarflamoqda.

Xitoyjahonda millionerlar uchun yuqori klassdagi tovarlarni sotish hajmi bo'yicha AQSH dan keyin ikkinchi o'rinda turaladi. Misol uchun 2011 yil yanvardan aprelgacha sotilgan Bentli avtomobilining har to'rtinchisi Xitoyda sotilgan. Umuman, Xitoyda Bentli avtomobillarini sotish hajmi 66% ga o'sgan. Bundan tashqari, Xitoy biznes-klass samolyotlarini sotish hajmi bo'yicha ham dunyoda ikkinchi mamlakatga aylanishi mumkin. Jumladan, 2010 yilda Xitoy hissasiga Boeing samolyotlarini sotishning 30% i va Airbus samolyotlarini sotish hajmining 25% i to'g'ri keldi³⁹.

Xitoyda o'rta sinfning o'sib borayotgan iste'molini qondirishning yana bir misoli 2015 yilga borib "bir oila - bir farzand" siyosatining bekor qilinishidir. Hozirda ikkinchi farzand birinchisi tug'ilgandan to'rt yildan keyin va onasining yoshi 28 yoshgacha bo'lsagina jarima belgilanadi.

Mamlakatda demografik siyosatning o'zgarishiga iqtisodiy sabablar ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, Xitoy aholisi sekin-asta qarib bormoqda, jumladan, 2000 yilda 65 va undan yuqori yoshdagilar jami aholining 7% ini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich 2009 yilda 8,5% ga teng bo'ldi. 0 dan 14 yoshgacha bo'lganlar ulushi esa 2000-2009 yillarda 22% dan 18,5% ga qadar qisqardi. 2020 yilga borib 65 va undan yuqori yoshdagilar soni 250 mln. kishigacha, 2050 yilda esa 440 mln. kishigacha ko'payishi kutilmoqda. Bunda bitta pensiya yoshidagi kishiga 1,7 ta ishlovchi to'g'ri keladi⁴⁰.

Ikkinchidan, Xitoyda tug'ilish darajasi pasayib borish tendensiyasiga ega. Bu o'z navbatida ishchi kuchi qiymatining oshishiga olib keladi.

Xitoy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga tuzatishlar kiritildi. Bu o'zgarishlar Xitoy YAIMning o'sish sur'ati eksportga emas, balki ichki omillarga bog'liq bo'la boshlagan davrdan (2005) boshlandi. Mamlakatda o'rta sinf vakillarining jadal sur'atlarda ko'payishi (yiliga 10-15 mln. kishi) va

³⁹Muallif tomonidan tayyorlandi

⁴⁰Muallif tomonidan tayyorlandi

urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi (20-30 mln.) ichki iste'molning yuqori sur'atlarda o'sishiga turtki bo'lmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, yangi xitoy iste'molchilar avlodining aksariyat qismi 2000 yillarda hayotlarida birinchi marta muzlatgich, televizor, kompyuter, uyali aloqa avtomobil, uy-joy, mamlakat va xorij bo'ylab sayohat qilish kabi tovarlar va xizmatlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishdilar.

Investitsion talabning o'sishi davlat tomonidan mamlakat bo'ylab zamonaviy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratishga qaratilgan faol siyosat olib borishini rag'batlantirdi. Aynan ichki iste'mol Xitoyning 2008-2009 yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siridan katta yo'qotishlarsiz chiqib ketishiga imkon yaratdi.

Yangi Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining yana bir tarkibiy elementi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga (innovatsiyalar, hayot sifati, atrof-muhit muhofazasi) erishish hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII besh yillik rejasi (2011-2015) iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishi kutilmoqda.

Xitoy yalpi ichki mahsulotning umumiy miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Ammo miqdoriy o'sish resurslar yetishmasligi, ekologiya yomonlashuvi va qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Xitoyda oxirgi yillarda ilmiy-texnologik salohiyatni modernizatsiyalash jarayonlarining sekinlashuvi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bermayotir. Bu sohada Xitoy AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreyadan ortda qolmoqda. O'z navbatida hozirgi iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish Xitoy iqtisodiyotining rivojlanmagan "qoloq" segmentlarining innovatsion rivojlanishga tayyor emasligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, harbiy sohani modernizatsiyalash jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga

kirishdi. Hozirda Xitoyda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini 8% darajasida saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu vazifani hal etishda Xitoyning yangi iqtisodiy strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi va u quyidagi tarkibiy yo'nalishlarga ega⁴¹:

- yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turish strategiyasidan voz kechish;
- iqtisodiy o'sish sifatiga urg'u berish;
- innovatsion rivojlanish strategiyasi;
- “yashil iqtisodiyot” asosida o'sish strategiyasi.

Qayd etib o'tilganidek, Xitoyda ichki iste'mol talabi va innovatsiyalarga ustuvorlik berilgan yangi iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish jarayoni boshlandi. Yangi hukumat iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini saqlab qolish, inflyatsiya va ishsizlik o'rtasida strategik balansni o'rnatishga harakat qilmoqda. Bunda 2008-2009 yillarda umummilliy miqyosda qabul qilingan investitsion dasturlarga asosiy e'tibor qaratish ko'zda tutilmaydi. Asosiy e'tibor iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga va istiqbolda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun liberal islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratiladi. Quyidagilar ushbu iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan:

- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish (samarasiz davlat korxonalarini xususiylashtirish, kredit bozorida arzon va yuqori likvidli kreditlarni cheklash, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalar sarflash);
- iqtisodiyotni boshqarishda byurokратиyani kamaytirish (xitoy tovarlarining tannarxini pasaytirish va korrupsiya darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan ruxsat beruvchi choralarni soddalashtirish yoki to'liq bekor qilish);
- ichki talabni kengaytirish (aholi daromadlarini oshirish).

Xitoy jahonda tovarlar ishlab chiqarish fabrikasidan tovarlar brendini ishlab chiqarish va “jahon miqyosida to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talab bozoriga”

⁴¹ Михеев В. Дальше – без заветов-2 (Китай: смена модели модернизации) //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2013. С.57-65.

aylanmoqda. Jumladan, 2013 yilning birinchi yarmida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,7%ga o'sdi. Xarajatlarning ortishi asosan sifatli oziq-ovqat, avtomobillar, uy-ro'zg'or buyumlari, dam olish va kiyim-kechak sotib olish hisobiga yuz bergan. Masalan, ushbu davrda avtomobillar sotish hajmi 17%ga o'sgan. Xitoyda 2013 yilning birinchi choragida 320 tonna oltin sotilgan va uning 95%i taqinchoqlar, quymalar va tangalar hissasiga to'g'ri kelgan. Quymalar va tangalar sotish hajmi 2012 yilning birinchi choragiga nisbatan 137%ga o'sgan. Umumjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2012 yilda Xitoylik turistlar xalqaro turizm uchun 102 mlrd dollar sarflashgan va ushbu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 40%ga oshgan⁴².

Xitoyda iste'mol tovarlarini sotish hajmi Xitoyning istiqboldagi rivojlanish strategiyasi uzoq muddat xizmat qiluvchi va yuqori sifatli tovarlarga bo'lgan talabning innovatsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi, robotlashgan texnikalar talabiga aylanishiga asoslanadi.

Xitoy omili jahon va mintaqa (Osiyo-Tinch okeani mintaqasi) darajasida xalqaro mehnat taqsimotining o'zgarishiga olib keladi.

Yuqori mehnat sig'imkorligiga ega va ekologik jihatdan zararli ishlab chiqarishni Xitoydan Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Afrikaning kam taraqqiy etgan mamlakatlariga ko'chirib o'tkazish boshlanadi. Afrikada Xitoy investitsiyalarining yo'nalishi resurslar va infratuzilma sohasidan yuqori mehnat sig'imkorligiga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tomon o'zgaradi.

Xitoy keyingi o'n yil ichida yuanning xalqaro valyutaga aylanishi va xitoy moliya bozorlarining erkinlashishi natijasida jahon moliya markaziga aylanishi kutilmoqda. O'rta muddatli istiqbolda Xitoy jahonda kapital eksport qiluvchi va jahonning yetakchi mamlakatlari hukumatlari qimmatbaho qog'ozlarining asosiy egasiga aylanishi mumkin.

Ushbu strategiyaning qator kamchiliklari mavjud:

➤ tabiiy - resurslar yetishmasligi, ekologik muammolar;

⁴²Михеев В. Дальше – без заветов-3 (“Китайская мечта”, Ликономика, амбиции лидерства) //Мировая экономика и международные отношения, №2, 2014. С.16.

➤ tarixiy - o'z fundamental tadqiqotlar bazasining rivojlanmaganligi, moliya bozorlari yopiqqligining saqlanib qolishi va boshqalar;

➤ tarkibiy - mamlakat aholisining 50 foizi qoloq, rivojlanmagan qishloqlarda yashaydi, aholining 15 foizi ichki migrantlardan iborat ekanligi.

Qishloq aholisi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va o'rta sinfni to'ldirish zaxirasi rolini o'ynasa-da, ushbu zaxiradan foydalanish eski ekstensiv usullarni talab etadi. Infratuzilmani rivojlantirish, mamlakatning urbanizatsiya darajasini oshirish, qishloq joylarda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga investitsiyalar sarflash, bandlikni ta'minlovchi mehnat sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarishni rivojlantirish shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarishni robotlashtirish va mehnat sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarishni xorijga chiqarish mehnat unumdorligini oshirsa-da, past va o'rta malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabning qisqarishi, ushbu holat o'z navbatida salbiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarishni horijga chiqarishning yangi va istiqbolli tendensiyalari, innovatsion strategiyalar, ishlab chiqarishni robotlashtirish xitoy iqtisodiyotining "qoloq segmenti"da inqirozning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Xitoy iqtisodiyotining "rivojlangan" va "qoloq" segmentlarga bo'linishi davlat va xususiy investitsiyalarning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashni, bir vaqtning o'zida innovatsiyalarga asoslangan, resurslarni tejovchi va "yashil" texnologiyalar bilan bog'liq tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mutaxassislar fikricha, Xitoyda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi davlat investitsiyalarining harbiy sohani modernizatsiya qilishga ustun darajada yo'naltirilishi oqibatida yuz berishi mumkin. Harbiy xarajatlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori sur'atlarda ortib bormoqda. Masalan, 2013 yilda harbiy xarajatlar 120 mlrd.dollarni tashkil etib 2012 yilga nisbatan 11%ga o'sgan va yalpi ichki mahsulotning 1,3-1,4%iga yetgan.

Urbanizatsiya jarayonlarining sekinlashuvi va o'rta sinf vakillari sonining o'sishi, harbiy xarajatlarning ortib borishi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dinamikasiga salbiy ta'sir etadi.

Iqtisodiyot va xarbiy modernizatsiya o'rtasida yangi balansni o'rnatish xitoy hukumati oldida o'rta istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifa hisoblanadi.

2.3. Xitoy Xalq Respublikasida iqtisodiy o'sishning kelajak istiqbollari va uning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari

Xitoy dunyoning boshqa mamlakatlari singari XX asrning ikkinchi yarmida miqdoriy va sifat o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Mamlakat aholisi 3,4 baravarga (1900 yilgi 400 mln. kishidan 2012 yilda 1 mlrd. 351 mln. kishiga) ko'paydi.

2.3.1-jadval Xitoyning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini ortib boorish tendensiyasi⁴³

Ko'rsatkichlar	1900	1950	1960	1970	1980	1990	2000	2010	2012
Aholi.mln,kishi	400	580	700	830	980	1155	1260	1338	1351
Aholi soning o'sishi, marta, 1900-1	1	1,5	1,8	2,1	2,5	2,9	3,2	3,4	3,4
Jahon YaIMMdagi ulushi, %	8,1	3,7	3,8	2,6	2,5	5,4	10,1	9,4	11,1
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIMhajmi (VXQP, mingdoll.)	0,5	0,5	0,7	0,6	0,7	1,7	3,9	7,5	9,2
Aholi jonboshiga to'g'ri keluvchi YaIMning o'sishi, marta, 1900-1	1	0,9	1,3	1,1	1,3	3,2	7,4	12,9	18,4
Jahon eksportidagi ulushi, %	3,1	1,8	2,5	2,0	2,2	4,5	7,7	10,4	11,2


⁴³Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma.-T.: Moliya, 2011. - b; World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. R.297 ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Zamonaviy Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanishi mamlakatda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar mahsulidir.

Muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar Xitoyi iqtisodiy o'sish darajasi bo'yicha jahondagi peshqadam mamlakatlardan biriga aylantirdi. Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoyda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 1978-2012 yillarda 9,0% dan yuqori bo'ldi. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra esa, oxirgi besh yil ichida, Xitoy iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 10% ga, 1990-2012 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmi 341,4 dollardan 9,2 ming dollargacha, ya'ni 18,4 martaga o'sdi.

2.3.1- diagramma

Xitoy yalpi ichki maxsuloti, mlrd. doll⁴⁴



J.Stiglits hisob-kitoblariga qaraganda, Xitoy iqtisodiyoti oxirgi 20 yil davomida jami rivojlanayotgan mamlakatlarning qariyb yarim yalpi iqtisodiy o'sishini ta'minlab berdi⁴⁵.


⁴⁴ Жуджунь Дин, Ковалев М. М., Новик В. В. Д44 Феномен экономического развития Китая: Научное издание. Мн.: Издательский центр БГУ, 2008. С.9. ; World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. P. 293-298. Ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁴⁵ Стиглиц Дж. Сравнение китайской и зарубежной экономических систем // Цзинцзисюэ дунтай, №5, 2001. С. 4.

2008 - yilda Xitoy iqtisodiyoti nominal qiymat bo'yicha Germaniyani va 2010 - yilga kelib, Yaponiyani quvib o'tdi, 2040-yilda esa, AQSHni orqada qoldirib, jahondagi yirik iqtisodiyotga aylanishi kutilmoqda.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti, 2012 y. (valyutaning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha)⁴⁶

2.3.2- diagramma



Xitoyning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish istiqbollari Xitoy kommunistik partiyasining 16-s'yezdida (2002 y.) 16-y s'yezdidayoq ishlab chiqilgan edi. Unda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash modernizatsiya jarayonlarining asosi sifatida qabul qilindi. S'yezd Xitoy yalpi ichki mahsulotini 2020 yilga borib 2000 yilga nisbatan 4 martaga oshirish, mamlakatda “o'rta sinf” qatlamini shakllantirish va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ulushini 3000 dollarga yetkazish vazifalari belgilab olindi.

Xitoyda 2020 yilga borib “o'rta sinf” qatlamini shakllantirish vazifasi ustuvor vazifa sifatida alohida ahamiyat kasb etishi va quyidagi istiqbolli

⁴⁶World Development Report.Risk and OpportunityManaging Risk for Development. 2014.WorldBank.2014. P. 293-298.

ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutildi. Xususan, shaharlar va shaharchalarda ixtiyoridagi daromad darajasini jon boshiga 18 000 yuan (2000 yilda 6280 yuan) va qishloq joylarda 8000 yuanga (2000 yilda 2253 yuan) yetkazish rejalashtirildi. Shuningdek, Engel koeffitsiyentini (aholining umumiy xarajatlarida oziq-ovqat xarajatlarining ulushi) 46 foizdan 35 foizga qadar qisqartirish, Xitoy jamiyatini "bilimlar iqtisodiyoti"ga asoslangan jamiyat sari rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan maktab bitiruvchilari ulushini 11 foizdan 25 foizga qadar oshirish, aholining personal kompyuterlar bilan ta'minlanganlik darajasini 9,7 foizdan 20 foizga qadar ko'paytirish belgilandi. Xitoyning ijtimoiy sohadagi yana bir muhim siyosati urbanizatsiya darajasini 36,2 foizdan 56 foizga qadar oshirish hisoblanadi.

Xitoy iqtisodchi olimlarining fikricha, "o'rta sinf"ning shakllanishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida - iqtisodiyot, madaniyat, siyosat, ijtimoiy hayot - o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Ushbu jarayoni kuzatib borish uchun rivojlanishning sifati va adolatligini ko'rsatib bera orladigan kompleks ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu ko'rsatkichlar tizimi 40 dan ortiq, turli guruhlarga ajratilgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu ko'rsatkichlarning barqaror sur'atlarda o'zgarishini jamiyatning sanoatlashish, axborotlashish, bozorlarning rivojlanishi, urbanizatsiyalashish hamda fan va texnikaning innovatsion salohiyati ko'rsatkichlari aks ettiradi. Har bir yo'nalish bo'yicha bittadan (urbanizatsiya) yettitagacha (innovatsion salohiyat) baholash mezonlari qabul qilingan.

Masalan, axborotlashtirish darajasi quyidagi to'rtta mezon bo'yicha baholanadi: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi aloqa xizmatlari miqdori; har yuz kishiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni; Internetdan foydalanuvchilar soni (har ming kishiga); har yuz kishiga to'g'ri keluvchi telefonlar soni. Bozorlarning rivojlanish darajasi xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo hajmining nisbati, asosiy fondlarga sarflanayotgan jami investitsiyalarda nodavlat sektorining ulushi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Rivojlanish sifati iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (tannarx bo'yicha rentabellik, aylanma mablag'larning aylanish tezligi), jamiyatning sifat ko'rsatkichlari (ishsizlik, Engel koeffitsiyenti, kutilayotgan umr davomiyligi va h.) va iqtisodiyotning intensivligi va ekologik talablarga javob berishi ko'rsatkichlari (bir birlik yalpi ichki mahsulotga sarflanayotgan suv va energiya xarajatlari, ichimlik suvini tozalash koeffitsiyenti va b.) bilan tavsiflanadi.

Adolatli rivojlanishni baholash uchun shahar va qishloq aholisi daromadlari o'rtasidagi farq, erkaklar va ayollarning ta'lim olish, ish topishdagi huquqlarining tengligini ta'minlash ko'rsatkichlari qabul qilingan.

Xitoy iqtisodiyotining 2020 yilga erishish lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi 12 ta ustuvor yo'nalish belgilandi:

- umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoning yetakchi uch markaziga yetib olish;
- urbanizatsiya darajasini 55 foizga yetkazish, aholini kichik, o'rta va yirik shaharlar taqsimlashning oqilona tizimini shakllantirish;
- dengiz bo'yi hududlarida 2010 yilga qadar aholining "nolga teng o'sish"iga, 2015 yilga borib resurslarni ishlatishning "nolga teng o'sish"iga, 2020 yilga borib esa ekologik muhitning yamonlashuvida "nolga teng o'sish"ga erishishi;
- Xitoyni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha dunyoning yetakchi o'n beshta mamlakati qatoriga kiritish;
- Iqtisodiy o'sishda ilmiy-texnika taraqqiyoti omilining ta'sirini 65 foizdan oshirish;
- Mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda don, energiya tashuvchilari, resurslar bilan ta'minlanganlikdagi salbiy jihatlarni bartaraf etish;
- Milliy xavfsizlikning bazaviy ko'rsatkichlarini (oziq-ovqat, energetika, ekologiya, transport, sanitariya va b.) ta'minlash.

Istiqbolda rivojlanish rejalarini uch bosqichda (2010, 2015 va 2020 yy.) amalga oshirish belgilangan bo'lib, ular Xitoyda saqlanib qolgan besh yillik rejalariga bog'liqdir. Misol uchun yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imkorligini 2010-

yilda har 10 ming yuan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun shartli 800 kg yoqilg'i sarflash, 2015-yilga borib 6000 kg., 2020 yilga borib esa 300 kg va undan kam yoqilg'i sarflash rejalashtirilgan. Shuningdek, Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun sarflanayotgan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ham bosqichma-bosqich oshirib borish, jumladan 2010 yilda 2%ga, 2015 yilda 2,5%ga va 2020 yilda 2,8%ga yetkazish rejalashtirilgan. Ammo ushbu reja to'lig'ichabajarilganicha yo'q, Misol uchun 2005-2010 yillarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun sarflanayotgan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1,5%ni tashkil etgan⁴⁷.

Xitoy iqtisodiy islohotlariga xos xususiyatlardan biri bu qabul qilingan rejalarga besh yillik rejalalar asosida muntazam tuzatishlar kiritib boorish hisoblanadi. Xitoy Rivojlanish muammolari tadqiqot markazi prognozlariga ko'ra 2020 yilga borib mamlakatning 18 ta mintaqasida, 2030 yilga borib 28 tasida, 2040 yilga borib esa barcha - 34 tasida (Tafvan, Gonkong va Aomen bilan birgalikda) "birinchi modernizatsiya" (ya'ni sanoatlashish) bosqichi yakunlanadi. Shu bilan birga 34 ta mintaqadan 10 tasidagina 2020 yilda jahonning o'rtacha rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishiladi. Istiqboldagi eng muhim yutuqlardan biri "o'rta sinf" ulushini 2003 yildagi 19 foizlik darajadan 2020 yilga borib 40 foizga yetkazish hisoblanadi.

Xitoyda mamlakatning uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishga bo'lgan urinishlar 1990-yillarning o'rtalaridan boshlangan. Ushbu prognozlarning eng mashhurlaridan biri 1996-1997 yillarda iqtisodchi olim, professor Li Szin-ven tomonidan nashr etilgan "Xitoy iqtisodiyotining 21 asrdagi megatendensiyalari", deb nomlangan monografiyasi hisoblanadi.

Li Szin-ven hisob-kitoblari quyidagicha:

⁴⁷Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с англ.; ПРООН. – М., Издательство «Весь Мир», 2013. С. 187.

- birinchidan, Xitoy sanoatlashishni axborotlashtirish bilan birgalikda olib bora oladi va bazaviy tarmoqlarni ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida rivojlantiradi. 2050 yilga borib rivojlangan mamlakatlarni quvib yetadi;

- Ikkinchidan, ushbu vazifalarni uch bosqichda amalga oshiradi. 2010 yilga qadar yalpi ichki mahsulotni 20 trln. yuanga yoki jon boshiga 14 ming yuanga yetkazish. 2011-2030 yillarda yalpi ichki mahsulotning to'rtacha o'sish sur'atlarini 5,9 foiz darajasida ta'minlab, 2030 yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 62 trln. yuanga yetkazish. Yalpi ichki mahsulot hajmini 2031-2040 yillarda o'rtacha 4,9% va 2041-2050 yillarda 4,3% oshirib borib, 2050 yilda YAIM hajmini 153 trln. Yuanga va jon boshiga 100 ming yuanga yetkazish;

- Uchinchidan, iqtisodiy o'sish sur'atlarini iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar bilan birgalikda amalga oshirish.

Prognozlarga ko'ra qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keyingi yillarda 17,4 foizdan 6,2 foizgacha qisartirish, sanoat ulushini 51,7 foizdan 42,1 foizga qisqartirish, xizmatlar ulushini esa 30,9 foizdan 51,7 foizga qadar oshirish rejalashtirilgan. To'rtinchidan, joriy narxlarda hisoblangan yalpi ichki mahsulot hajmini bo'yicha 2030 yillarda AQSHni ortda qoldirish, 2050 yilga borib esa AQSHdan ushbu ko'rsatkich bo'yicha ikki marta o'zib ketish. Tahlillar, Li Szin-ven bashoratlarining to'g'riligini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2012 yilda Xitoy yalpi ichki mahsuloti valyutaning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH yalpi ichki mahsulotining 78,6 foizini tashkil etdi. Joriy narxlarda ushbu nisbat 49,7 foizni tashkil etmoqda⁴⁸.

Bu boradagi keyingi prognoz Xitoy Davlat statistika boshqarmasi xodimi Syuy Syanchun tomonidan 2002 yilda amalga oshirilgan (2.3.2-jadval)

2.3.2-jadval

Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlaridynamikasi (projnoz ko'rsatkichlari)⁴⁹

⁴⁸World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. P.296,297.

⁴⁹Доклад о стратегии устойчивого развития Китая-2004 (2004 Чжунго кэ чисюй фачжань чжаньлюэ баогао).

Yillar	YaIM, mlrd. doll.	Yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari, %
2000	1080,0	7,5
2005	1550,5	7,5
2010	2226,0	7,5
2020	4178,3	6,5
2025	5460,9	5,5
2030	7137,2	5,5
2040	11083,9	4,5
2050	15634,9	3,5
2060	21012,0	3,0
2100	68542,0	3,0

izoh: prognoz 2001 yilda 2000 yilnarhlaridayuanningdollariganisbatan 1998-2000 yillardagio'rtacha kursi asosida amalga oshirilgan.

Syuy Syanchun prognozlarida quyidagi xususiyatlarni ajratib o'tish lozim.

Birinchidan, u prognozlarda Xitoy iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib borishini e'tiborga olgan.

Ikkinchidan, yalpi ichki mahsulotning mutloq hajmi bo'yicha Xitoy va AQSH o'rtasidagi nisbat 2000 yildagi 10,9 foizdan 2050 yilga borib 36,1 foizga qadar yetishini bashorat qiladi.

Uchinchidan, ushbu vaziyat yuan kursining dollarga nisbatan ko'tarilishi tufayli tubdan o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xitoy iqtisodiyotining keyingi yillar uchun prognozlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olimlar Xitoy uzoq vaqt davomida yuqori barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlab berishi ta'kidlovchi optimistlardir. Misol uchun, Pekin universiteti Iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktori Lin Ifu fikricha, Xitoy 2030 yilda AQSH bilan yalpi ichki mahsulotning mutloq hajmi bo'yicha tenglashadi va jon boshiga to'g'ri keluvchi ko'rsatkichi bo'yicha esa 1/5 qismiga tenglashadi. Jumladan, 2012 yilda Xitoyda aholi jon boshiga to'g'ri kelduvchi yalpi ichki mahsulot ulushining xarid qobiliyati pariteti

bo'yicha hajmi AQSH ko'rsatkichining 18,2 foizini tashkil etdi. Joriy narxlarda ushbu nisbat 11,4 foizni tashkil etmoqda⁵⁰.

Boshqa guruh olimlari esa Xitoy 21 asrning ikkinchi yarmida modernizatsiyaning jahondagi o'rtacha darajasiga erishadi va birinchi 40 ta mamlakat qatoridan o'rin oladi, 2080 yilga borib iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar sirasiga kiradi, 2100 yilga borib iqtisodiy modernizatsiya darajasi bo'yicha birinchi o'nlikka kirishi mumkin deb hisoblashadi. Bu boradagi asosiy omil Xitoyning iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlab bera olishi, iqtisodiyotning tarkibi muntazam takomillashtirishi va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishi bilan bog'liqdir.

Xitoyning 2050 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining prognoz sifat ko'rsatkichlari Xu Chuantsi tomonidan ishlab chiqilgan (2.3.3-jadval).

2.3.3-jadval

XXI asrning ikkinchi yarmi uchun Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalashni baholash darajasi⁵¹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2000y.	2020y.	2030y.	2040y.	2050y.
Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarning YAIMdagi ulushi	%	1,0	2,0	2,4	3,0	3,6
Ilmiy xodimlar soni	Har 10 ming kishiga	5,5	12	18	26	39
Patentlar soni	Har million kishiga	20	112	201	359	643
O'rta ta'lim qamrovi darajasi	%	63	85	89	94	99
Oliy ta'lim qamrovi darajasi	%	7,2	24	34	48	68
Teleko'rsatuvlar qamrovi	Har ming kishiga TV soni	293	583	644	711	786

⁵⁰World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. P.296,297.

⁵¹Доклад о модернизации Китая-2004. (Чжунго сяньдайхуа баогао 2004). — Пекин. Бэйцзин дасюэ чубаньшэ. С. 112.

Internetdan foydalanish darajasi	Har 10 ming kishiga	178	2000	3000	5000	8000
Urbanizatsiya darajasi	%	36	53	61	71	81
Kutilayotgan umr davomiyligi	yil	70	74	77	79	81
Jon boshiga energiya iste'moli	1 kishiga neft ekvivalentiga ,kg	868	1902	2556	3435	4616
Jon boshiga YAIM miqdori	doll. 2000yil narhlarida	840	2451	3992	6503	10593
Jon boshiga YAIM miqdori (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha)	doll. 2000yil narhlarida	3920	11435	15368	20653	27756
YAIMda moddiy ishlab chiqarish ulushi	%	67	45	37	30	24
Moddiy ishlab chiqarishda bandlar ulushi	%	73	49	40	33	27

Tahlillar, ushbu bashoratning ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha Xitoy sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarning YAIMdagi ulushi 2010 yilda 1,5 foizni, ilmiy xodimlar soni 12 kishini, patentlar soni har million kishiga 100,7 tani, internetdan foydalanish darajasi har yuz kishiga 34,4 tani tashkil etgan⁵².

Fikrimizcha, Xitoy iqtisodiyotining uzoq istiqboldagi o'sish sur'atlarini baholashda modernizatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni e'tiborga olish zarur: siyosiy boshqaruv, texnik taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanishning siklik rivojlanishi va Xitoyning iqtisodiy o'sishiga tashqi omillar ta'siri.

Xitoy iqtisodiy rivojlansh sikllarini o'rganish quyidagi uch vazifani ko'zda tutadi: birinchidan, mamlakat iqtisodiy o'sishida o'sib boruvchi va pasayib boruvchi treidlarning shakllanish qonuniyatlari va omillarini aniqlash, ikkinchidan, uning asosida iqtisodiy dinamikada yirik pasayishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish, uchinchidan, siklik rivojlanish xususiyatlaridan Xitoy iqtisodiy o'sish sur'atlarini bashorat qilish.

⁵²Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с англ.; ПРООН. – М., Издательство «Весь Мир», 2013. С.187.

Xitoyda amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va doimiy ravishda ortib borayotgan iqtisodiy salohiyat O'zbekiston hamda Xitoy o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xitoyni O'zbekistonning eng muhim va istiqbolli hamkorlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

O'zbekistonda 380 dan ortiq qo'shma korxona, 58 ta yuz foizli Xitoy kapitaliga asoslangan korxonalar faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda 65 ta yirik Xitoy kompaniyalarining vakolatxonalari ochilgan bo'lib, ular ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 1994 yilda qabul qilingan eng qulaylik yaratish rejimi amal qiladi.

2010 yilda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tovar aylanmasi respublika tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 9,6% ni tashkil etgan. Ikkala mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2000-2010 yillarda 22 martaga oshgan (2.3.4-jadval).

2.3.4-jadval

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi, mln. doll.⁵³

	2000 й.	2010 й.
Tashqi savdo aylanmasi	95,5	2088,1
Esport	22,5	900,1
Umumiy eksportdagi ulishi, %	0,7	6,9
Import	73,0	1188,0
Umumiy importdagi ulushi, %	2,5	13,5
Saldo	-50,5	-287,9

⁵³O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

O'zbekiston eksportining tarkibi quyidagicha: paxta tolasi, voylok, ipak, to'qimachilik mahsulotlarini tayyorlash uchun zarur erituvchi materiallar, xizmatlar, shuningdek, paxta tolasi, mexanik asbob-uskunalar, mebel, kimyoviy tolalar, gazlama, paxta ip-kalava va boshqalar.

Xitoydan import qilinadigan asosiy mahsulotlar tarkibi esa quyidagicha: qora metallar va undan tayyorlangan mahsulotlar, kofe, choy va shirinliklar, mexanik asbob-uskunalar va elektr, poyabzal, kiyim-kechak, to'qimachilik va trikotaj, trikotaj polotnosi, ruda, organik kimyoviy birikmalar, kimyoviy tolalar, plastmassa va plastmassa mahsulotlari, xizmatlar, noorganik kimyoviy mahsulotlar, boshqa metallardan yasalgan mahsulotlar, turli tayyor mahsulotlar va boshqalar.

O'zbekistonda Xitoy hukumatining foizsiz va uzoq muddatli kreditlari, Xitoy Eksimbanki kreditlari hisobidan ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Xitoy investorlari O'zbekistonda neft-gaz sohasida faol faoliyat yuritmoqdalar.

Jumladan, Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (CNPC) Orol dengizi akvatoriyasi, Ustyurt, Buxoro, Xiva va Farg'ona hududlarida geologiya qidiruv ishlarini olib bormoqda (2.3.5-jadval).

2.3.5-jadval

O'zbekiston neft-gaz kompaniyasining xitoylik hamkorlar bilan olib borayotgan loyihalari⁵⁴

Investor	Konlar	Capital qo'yilmalar, mln.doll.	Faoliyat turi	Qo'shma korhona
XMNGK (CNPC)	Ustuyurt va Buxoro— Xiva hududlari	600,0	Geologiya qidiruv ishlari	"O'zXMNGK"
	Ariyaz, Sardob, Umid, Ustuyurt	47,3		
"Dungshen" (Dong Sheng)	Farg'ona vodiysi	113,0	Geologiya qidiruv ishlari	"O'zDungshen"

⁵⁴ O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan tuzilgan. // stat.uz.

Bundan tashqari, O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy hamkorlik aloqalarida 2009 yilda Trans osiyo gaz quvurining ishga tushirilishi muhim hodisa bo'ldi. 7000 kilometr uzunlikdagi Turkmaniston - O'zbekiston - Qozog'iston –Xitoy gaz quvuri bu mamlakatlar o'rtasidagi uzoq muddatli, teng huquqli va o'zaro manfaatlar tamoyiliga asoslangan an'anaviy hamkorlik ramziga aylandi.

Transport va turizm sohasidagi hamkorlik ham istiqbolli loyihalar tarkibiga kiradi. Buning uchun O'zbekiston o'z hududida zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirmog'i, kelajakda Xitoyni Yevropa bilan tutashtiruvchi temir yo'l yo'laklarining ishga tushirilishida nisbiy afzallikka ega bo'lgan munosib tranzit hudud vazifasini o'tamog'i lozim bo'ladi. Zero, yangi transport yo'laklarining barpo etilishi nafaqat Xitoyning Yevropa, YAQin Sharq, Rossiyaning g'arbiy hududlariga chiqishini, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarining ham bu mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashiga asos bo'la oladi. Bundan tashqari, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda muayyan mahsulot ishlab chiqarish borasida xalqaro mehnat taqsimoti munosabatlarini tashkil etish va ularda munosib ishtirok etish ham mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston va Xitoy yaqin istiqbolda sanoatning tog'-kon, avtomobil va neft-gaz tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Jumladan, "O'zkimyosanoat" DAK Xitoyning "CITIC Ltd." Kompaniyasi bilan 2012-2015 yillarda Qo'ng'iro't soda zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha Memorandum imzoladi. Ushbu loyiha zavodning ishlab chiqarish quvvatini 1,5 marta - yiliga 150 ming tonnagacha orttirish imkonini beradi.

"O'zbekneftgaz" 2012 yilda Xitoyning CNPC korporatsiyasi bilan birgalikda butadiyen kauchuklarini ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etishni rejalashtirgan. Mazkur loyiha doirasida yiliga 60 tonna butadiyen kauchigi olish mumkinligi va uning qiymati 400 mln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Butadiyen kauchigi "O'zkimyosanoat" DAK va Xitoyning "CITIC Ltd." kompaniyasi bilan birgalikda 2012-2016 yillarda tashkil etilishi

rejalashtirilayotgan shina zavodi uchun xomashyo vazifasini o'taydi. Loyiha qiymati 155 mln. dollarni tashkil etib, yiliga 1,5 mln. avtoshinalar, 200 ming qishloq xo'jalik mashinalari shinalari va 100 ming pogona metr konveyer lentasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi⁵⁵.

Bundantashqari, "O'zbekneftegaz" 2012 yilda mamlakatning janubi-g'arbida joylashgan Gazli hududida gaz konlarini o'zlashtirish uchun Xitoy Eksimbankidan 158,5mln. Dollar miqdorida kredit jalb etishni rejalashtirgan. Ushbu mablag'lar gazni magistral tarmog'iga tashish uchun quvurlar o'tkazish va infratuzilmani rivojlantirish uchun sarflanadi. Shuningdek, 2011-2020 yillarda umumiy qiymati 1 mlrd. dollarga teng "Qulbeshkak", "Xojiqazgan", "Doyaxotin", "Suzma", "Qumli", "Chegaraqum" kabi konlarini o'zlashtirish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bu loyihalarning amalga oshirilishi 2021 yilga borib yiliga 5 mlrd.kub metr gaz qazib chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning hozirgi kundagi darajasi, bir tomondan, har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur hamkorlik ikki mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlariga to'liq mos kelmaydi.

Fikrimizcha, Xitoy iqtisodiyoti mehnat sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishda qiyosiy afzallikka, boy tajribaga ega ekanini nazarda tutilsa, O'zbekiston uchun ushbu tarmoqlarda mazkur mamlakat bilan kooperatsion aloqalarni jadallashtirish lozimligi foydali bo'ladi. Xitoyning salohiyati va boy tajribasidan kelib chiqib, oziq-ovqat, to'qimachilik, mashinasozlik, kimyo, yuqori texnologiyalar sohasida qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

⁵⁵<http://www.uzinform.com/ru/news/20110929/09167.html>

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida O'zbekiston uchun Xitoyning iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishishida muhim rol o'ynagan industriallashtirish tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xitoyda industriallashtirish jarayonlarini tahlil etish orqali, umumiy ravishda quyidagi xulosalar qilish mumkin.

Birinchidan, davlat sanoatlashtirish siyosati - bu ishlab chiqarishning o'sishiga, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuidir. Davlat sanoatlashtirish siyosati iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ikkinchidan, Xitoy iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishida samarali industriallashtirish siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Ushbu siyosat iqtisodiy liberallashtirish, xo'jalikni boshqarishda bozor tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tishga yo'naltirilgan.

Uchinchidan, Xitoyda industriallashtirish natijasida mamlakatda iqtisodiy mahsulotning tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vaqishloq xo'jaligining ulushi 28,0%dan 2008 yilgacha 11,3%gacha qisqardi, sanoat, qurilish va xizmatlar ulushi esa 62%dan 88,7%ga oshdi. Xitoy sanoat islohotlari natijasida asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi. Jumladan, 1949 yilda prokat va neft ishlab chiqarish 0,1 mln. tonnadan 2008 yilga kelib mos ravishda 584,9 va 189,7 mln. tonnagacha o'rgan bo'lsa, avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 1978 yilgi 0,2 mln. donadan 2008 yilda 9,3 mln. donaga ko'paydi.

To'rtinchidan, Xitoy sanoat islohotlari quyidagi omillarga tayanadi:

- davlatning iqtisodiyotdagi roli;
- yuqori jamg'arish normasining mavjudligi. Xitoyda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamg'arish normasi YAIMga nisbatan o'rtacha 40 % ni tashkil etadi;

•eksport hududlarning barpo etilishi. Ushbu hududlar katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni talab etadi va ushbu qo'yilmalar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab eksport ishlab chiqarish hududlariga yo'naltirilgan davlat va xususiy investitsiyalar ulushi jami investitsiyalar hajmining yarmidan oshib ketgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarning 70% dan ortiq qismi ushbu hududlarga yo'naltirilgan. 2007 yilga kelib EIZning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 59,5% ni tashkil etdi:

•xususiy sektorning rivojlanishi. Hozirda Xitoyda zamonaviy aralash iqtisodiy tizimning hamma elementlari mavjud. Mamlakat JST ga a'zo bo'lganidan so'ng xususiy sektor uchun ilgari yopiq hisoblangan iqtisodiyot sohalari, jumladan, elektroenergetika, kommunal xizmat, neft sohasi, temir yo'l orqali tashish hamda fuqaro aviatsiyasida imkoniyatlar birmuncha kengaytirildi. Bu esa industriallashtirish jarayonida raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi.

Beshinchidan, Xitoy industriallashtirish jarayonining zamonaviy bosqichi iqtisodiyotni modernizatsiyalash hisoblanadi va u quyidagi tamoyillarga asoslandi:

•davlat tasarrufidagi korxonalarni saqlab qolish va yuqori texnologik taraqqiyotni belgilovchi yangi korxonalarni tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash;

•Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyani jalb etishga asoslanganligi;

•Xitoyliklar tomonidan G'arb texnologiyasini o'rganib, mamlakatda innovatsion nusxa ko'chirishning strategiyasining amalga oshirilishi;

•mamlakatda o'z tovarlarini jahon bozoriga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash orqali modernizatsiya samaradorligining oshirilishi;

•Xitoydagi modernizatsiyalash loyihalarining yetakchi elementi infratuzilmani rivojlantirishdan iboratligi.

Xitoydagi iqtisodiy mo'jiza sababi esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillarida investitsiya normasi va eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, kuchli proteksionizm siyosatini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasi qonunlari va Prezident asarlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
- 1.3. Karimov I.A. Jahon moliyaiy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston", 2009. - 11-bet.
- 1.4. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Узбекистон, 1997.-С.275-276
- 1.5. Каримов И.А. “Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш — тараққиётимизнинг муҳим омилidir”. Президент Ислон Каримов ЎзР Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. 07.12.2010 й. www.press-service.uz
- 1.6. Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.
- 1.7. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: “Ўзбекистон”. 1993. – 128 б.

2. Maxsus adabiyot va darsliklar

- 2.1. Ходиев Б. ва бошқ. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” номли

- асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2009. – 11-бет.
- 2.2. Б.Болотин. Мировая экономика за 100 лет. МЭиМО, №9, 2001.
- 2.3. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации : Учебник / О.Т.Богомолов. –М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. -359 с.
- 2.4. В.Гельбарс, В.Кузнецова. КНР. МЭиМО, №8, 2001.
- 2.5. В.Гельбарс, В.Кузнецова. КНР: год суровых испытаний. //МЭиМО, №8, 2000.
- 2.6. В.Гельбарс. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. с. 73-83.
- 2.7. В.Михеев. Китай: новые компоненты стратегии развития. //МЭиМО, №7, 2004.
- 2.8. Гельбарс В. Цена экономических успехов Китая. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С.29.
- 2.9. Гельбарс В., Кузнецова В. КНР. //МЭиМО, №8, 2001.
- 2.10. Завадский М. Спад на фоне роста. //Эксперт, №32, 2009. С. 34.
- 2.11. Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России//Вестник Российской Академии наук.– М., 1996. № 9.– с.771.
- 2.12. Федосеева Г.А. Мировая экономика и международные экономические отношения: Практикум – М.: ИНФРА – М, 2002.
- 2.13. Хасбулатов Р.И. Мировая экономика. В 2 кн. – М., 2001.
- 2.14. Гельбарс В.Г.Цена экономических успехов Китая // МЭ и МО. - М., 2007. -№9.-стр.26-34;ГлобализацияэкономикиКитая / Ред. В.В. Михеев. М., 2003. - 391 стр.
- 2.15. Новоселова Л.В. О реализации инвестиционнойсоставляющей стратегии экономического роста в КНР // Российский экономический журнал. - М., 2006. -№4. - стр. 63-72.
- 2.16. Каукенов А. Казахстан и Китай: состояние и перспективы сотрудничества // Китай и страныЦентральной Азии в современных

- геополитических условиях. Сборник статей. / Под ред. Л.Музапаровой. -Алматы: Центр по изучению Китая при ИМЭП, 2008. - стр. 39-43.
- 2.17. Кузык Б.Н., Титаренко М.Л. Китай-Россия 2050: стратегия соразвития. М.: ИДВ РАН, 2006. - 653 стр.
- 2.18. Ходжаев А.Б. Фактор энергетической безопасности в экономических приоритетах Китая и Узбекистана: Автореф. дисс. к.э.н. - Т., 2009.
- 2.19. Абулқосимов Ҳ.П. Иқтисодий ҳавфсизлик. – Т., Академия. 2006. 27-б.
- 2.20. Sadibekova B.D ekomimika izuchaem strana (kitay) Toshkent 2013.
- 2.21. Sadibekova B.D//O'zganilayotgan mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosati Toshkent 2012.

3. Jurnal va maqolalar

- 3.1. Портяков В.Я. О перспективах развития Китая // Проблемы Дальнего Востока. - М., 2005. - №5. - стр. 44-61.
- 3.2. Потапов М.А. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. - М., 2004. - 236 стр.
- 3.3. Пять лет членства в ВТО: пять важных результатов/Жэньминь жибао, 11.12.2006. <http://www.china.org.cn/russian/31516.htm>
- 3.4. Китай в 2007-2008 годах: итоги, проблемы, перспективы. 17.03.2008, http://my-china.ru/2008_17_03_economics_news.php.
- 3.5. Кэ Биншэн. Вступление Китая в ВТО: последствия и перспективы для сельского хозяйства. <http://www.rcrc.org.cn/RCRC/article/2003/11-04-14-1.htm>.
- 3.6. Китай: секреты восходящего мирового лидера (часть 2). Александр В. Смирнов, 14.05.09, http://www.prostobankir.com.ua/mezhhbankovskiy_biznes/stati/kitay_sekret_y_voshodyaschego_mirovogo_lidera_chast_2
- 3.7. Ба, Цзиньсинь. Формирование транснациональных корпораций в Китае // Проблемы Дальнего Востока. - М., 2005. - №5. - стр. 97-103.

- 3.8. Ли, Теин. Развитие китайской экономики в XXI веке: проблемы и перспективы // Халқаро муносабатлар. - Т., 2001. - №4. - стр. 13-19.
- 3.9. Huang, Yesheng. Selling China: Foreign Direct Investment During the Reform Era. - NY: CambridgeUniversity Press, 2007. - 384 p.
- 3.10. Асадуллаева И.Р. Хитой ташқи иқтисодий фаолиятига глобаллашувнинг таъсири: умумжаҳон тенденциялар ва намоён бўлиш хусусиятлари: Дисс. и.ф.н. -Т., 2006.
- 3.11. Исаджанов А.А. Внешнеэкономическая политика Китая в условиях глобализации // Халқаро муносабатлар. - Т., 2009. - №1. - стр. 30-36.
- 3.12. Бюллетень экономической информации по материалам китайской прессы за январь 2007г. МЭРТ.
- 3.13. Губайдуллина Ф. ПИИ, деятельность ТНК и глобализация // Мировая экономика и международные отношения. – 2003. - № 2. – С. 42.
- 3.14. Гельбрас В. Цена экономических успехов Китая // Мировая экономика и международные отношения. – 2007. - № 9. – С. 26.
- 3.15. Бергер Я. Большая стратегия Китая в оценках американских и китайских исследователей // Проблемы Дальнего востока. – 2006. - № 1. – С. 34.
- 3.16. Cheng Ning, “The Current Situation in Central Asia”, ISS, 3-2005
- 3.17. TDSHI. “Ilm-fan va barkamol avlod”. “XMI va mamlakatshunoslik” fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. Toshkent 2010-yil. 124 bet
- 3.18. TDSHI. “Yoshlar va ilm-fan”. XMI va Mamlakatshunoslik fakulteti, mustaqil tadqiqotchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. 25-may 2012-yil
- 3.19. TDSHI “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlari, asosiy saboqlari va milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’siri” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Maqolalar jamlanmasi. 2011-yil 25-aprel. 232 bet.

4. Internet resurslari

- 4.1. Синьхуа Агентлиги. / <http://www.russian.xinhuanet.com/russian/>.
- 4.2. Деловой журнал "ChinaPRO" - Весь Китай. Статьи / <http://www.chinapro.ru/articles/>.
- 4.3. <http://russia.mofcom.gov.cn/aarticle/counselorsreport/200801/20080105345253.html>
- 4.4. <http://www.o-kitae.ru/istoriya-ekonomiki-kitaya/ekonomika-kitaya.html>.
- 4.5. <http://www.globalaffairs.ru/numbers/16/4795.html>
- 4.6. www.press-service.uz
- 4.7. <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>
- 4.8. <http://www.UzA.uz>